

19 (519)  
A-90

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi


Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

M.A. Ahmedova, V.S. Xan

10

# KOREYA FALSAFASI

(qisqacha tarixiy bayon)



Toshkent-2009


Ushbu ocherk koreys falsafasi tarixi bo'yicha nafaqat O'zbekistonda balki MDH davlatlarida ham birinchi bor nashr etilgan asardir. Unda koreys falsafsining tarixi qadimiy Koreyaning dastlabki qarashlaridan boshlab to hozirgi zamon falsafiy qarashlarigacha bo'lgan jarayon o'rganiladi. Broshyura talabalar, aspirantlar, o'qituvchilar, va umuman, Uzoq sharq mintakasi halqlari ma'naviy dunyosining shakllanishi bilan qiziquvchi kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

**Ahmedova M.A., Xan V.S. Koreys falsafasi (qisqacha tarixiy bayon).** –T.: ToshDShI nashriyoti. 2003. 76 b.

---

Mas'ul muharrir:	<b>Po'latova D..A.</b>
Muharrir:	<b>Muhibova U.U.</b>
Taqrizchilar:	<b>Imomaliyev R. Karimov R.</b>

O'quv Qo'llanma ToshDShI O'quv Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (bayonnoma №1 / 16.10.2008).



© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009

## KIRISH

Mazkur kitobda ilk bor o'zbek tilida koreys falsafasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy xolati tadrjijiy ravishda bayon etiladi. Kitob rus tilida "Vostochnaya filosofiya" rukni ostida V.Xan muallifligida chop etilgan "Koreyskaya filosofiya" (T., 2004) nomli kitob (broshyurasi) asosida tayyorlandi. Unda Qadimiy Koreyada diniy-mifologik tasavvurlar asosida shakllangan falsafiy tafakkurning boshlang'ich asoslari, O'rta asr Koreya hayotiga konfusiychilik, buddaviylik, dasoizm ta'limotlarining kirib kelishi va ularni milliy muhitga moslashib o'zgarishi, shuningdek Koreya zaminida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar va maktablar, yangi va eng yangi davr koreys falsafasi taraqqiyoti ko'rib chiqiladi.

Kitobda hozirda ikki mustaqil davlat: Koreya Demokratik Respublikasi va Koreya Respublikasi siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan xolda yoritilgan.

Mazkur asar tayyorlanishi jarayonida koreys, rus, ingliz tilidagi manbalardan foydalanildi. Kitobdan falsafa, tarix, quriyashunoslik ixtisosligida taxsil olayotgan talaba va aspirantlar, shuningdek o'qituvchilar o'quv qo'llanma sifatida foydalanishi mumkin.

Kitob, shuningdek, shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlarga ham mo'ljallangan.

## 1 Bob. Qadimiy Koreyadagi diniy - mifologik tasavvurlar va dastlabki falsafiy qarashlar

**Qadimiy Koreyada mifologiya va shamanizm** Totemizm asoratlari – insonning hayvonot, o‘simlik va boshqa jismlar guruhining sirli dunyosi bilan bog‘liqligiga bo‘lgan ishonch – koreys halqining turli mif va rivoyatlarida, hamda ularning qadimiy rassomchilik san‘atida mavjudligini kuzatish mumkin. Shunday qadimiy miflardan biri bu “Tangun haqida afsona” bo‘lib u koreys halqi va davlatining qadimiyligini ifodalovchi mifdir. Ushbu mifga ko‘ra, osmon ma‘budining o‘g‘li shahzoda Xvanun Txeboksan tog‘ida “Ma‘budlar makoni”ni qurgan. U odamlarni foydali ishlarga va bilimlarga, jumladan, dehqonchilik, tabibchilik, duradgorlik va tikuvchilik san‘atlariga hamda baliqchilikka o‘rgatadi. U paytlarda tog‘da insonga aylanib qolish xohishidagi ayiq va yo‘lbars yashar edilar. Shunda Xvanun ularga agar siz g‘or ichida yuz kun sarimsoq piyoz va dorivor o‘tlar iste‘mol qilib yashasangiz istagingiz amalga oshadi deb aytgan ekan. Ayiq bu shartni bajargan va bir ayolga aylangan. Ayolga aylangan ayiq Xvanunga turmushga chiqib bir Tangun ismli o‘g‘ilni tuqqan va er.av. 2333 yilda Pxenyanda u Choson yoki Qadimiy Choson davlatiga asos solgan. [17:16].

Ayiqdan tashqari koreyslarda yana boshqa hayvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyatlarni ham kuzatish mumkin. Qadimiy Silla qabilasining asoschisi sanalgan onaboshi rivoyatlarga ko‘ra tovuq tumshug‘i bilan tug‘ilgan emish, Silla qabilasining “asoschisi” bo‘lgan uning farzandini esa xo‘roz qo‘riqlar ekan. Boshqa afsonalarga ko‘ra Qadimiy Koreyadagi Puyo davlati hukmdoridan birining kelib chiqishi “oltin qurbaqa” avlodidan, hamda Sok sulolasi esa zag‘izg‘on qushidan deyiladi. Puyo davlatida “zodagonlar uylari” ot, sigir, cho‘chqa va itlar zotidan deb sanalgan. [6:148-151]. *Yemek* qabilasi esa yo‘lbarsga sig‘inar ekan [8:45]. Koreys miflari va kultlari tadqiqotchisi Yu.V. Ionova “qadimiy ota-bobolarning ruhini ham hayvonlar bilan bog‘lash ilk diniy qarashlarga xosdir” deb yozadi. Koreyslarning qadimiy diniy qarashlariga ko‘ra inson olamdan o‘tganidan keyin ot, yo‘lbars, cho‘chqa, ilon, tulki yoki qarg‘aga aylanar ekan. Bunday aloqa ko‘mish marosimlaridagi turli rasm-rusumlarda, masalan, murdani qandaydir hayvon terisiga o‘ralishi yoki raqslardagi o‘sha hayvonga xos bo‘lgan xatti-

harakatlar bilan asoslagan. Inson o'lganidan keyin biron bir hayvonga aylanishiga bo'lgan ishonch koreyslarning turli qadimiy miflarida o'z aksini topgan. [6:155].

Animizm va shamanizm koreys halqining mifologik dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Animizm asoratlari Koreya hududidagi turli qadimiy joylarning qazilmalarida topilgan. [8:42]. O'zining ko'p asrlik tarixi davomida koreys halqi doim tabiatni iloxiyashtirib uni sanoqsiz sirli ruhlar va yovuz kuchlar bilan bog'lab kelgan. Ruhlar va yovuz kuchlar har yerda mavjuddir. "Ular har bir daraxt tagida, har bir tashlandiq yerda, oqayotgan suvda va tog' bag'rida yashaydi. Har bir tom, burchaklar, quvurlar, xonadonlar, oshxonalar ular bilan to'lgan. Ular har bir ko'zda va tokchalarda mavjud. Koreys xonadonining har bir burchagi yovuz kuchlarga bo'ysungan. Ular har bir koreysni umr bo'yi kuzatib yuradi". [20:402]. Ruhlar va yovuz kuchlar istagan qiyofaga, shu jumladan g'aroyib hayvonlar qiyofasiga ham kira olish xususiyatiga egadir. Koreys mifologiyasida g'aroyib hayvonlardan ajdaho, bir shoxli kirin, qaqnus qushi va boshqalar mavjud. Eng oliy darajada shakllangan, ayol va erkak sintezini o'zida to'liq aks ettirgan hayvon "*kirin*" hisoblanadi. («ki» - erkak, «rin» - ayol). U tanasi po'stlog'i bilan o'ralgan va bitta yumshoq shoxli kiyik qiyofasidadir. Kirin o'zida dunyo paydo bo'lishining dastlabki besh elementlari: suv, olov, daraxt, metall va yerni mujassamlashtirgan. U shu bilan bir qatorda o'zida qadimgi koreyslarning aksiologik qadriyatlarini ham aks ettirgan. Kirin tinchlik, baxt, to'g'rilik va haqgo'ylik ramzidir. [20:404-406]. «Kirin» obrazida koreys falsafasining mifologik qarashlardan kelgusi tushunchalar va obrazlarga asta-sekin o'tish jarayonini: dunyo yaralishining ayol va erkak davrini (yan i im), dastlabki besh unsur ta'limotini (suv, olov, daraxt, metall va yer), insoniyat va dunyo taraqqiyotining birligi (osmoniy "li" ta'limoti)ni kuzatish mumkin.

Koreys mifologiyasida faqat fantastik hayvonlargina emas, balki oddiy hayvonlar ham g'ayritabiiy kuch-qudratga ega qilib tasvirlanadi. Koreys halqida o'lganlarning ruhiga ishonch juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tiriklar va o'liklar ruhiy olamining o'zaro munosabati tizimi koreyslar dunyoqarashini o'rganishda muhim bir omildir, chunki bu ta'limot ularning yashash tarzida, hayotning muhim bosqichlarida, turli masalalarni hal qilishida butun umri davomida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha,

koreyslar tanadan alohida ravishda mavjud bo'lgan ruh tushunchasini tan olmaydilar. Ular tushunchasida ruh insonning tirikligini ta'minlovchi omildir. Ruhning bu xususiyati inson olamdan o'tishi bilan tugaydi va faqat buyuk shaxslarninggina ruhi o'lganidan keyin ham saqlanib qoladi. [7:167-168]. XIX asrning oxirida Koreyaning ziyorat qilgan tadqiqotchi N.G. Garinning ta'kidlashicha, koreyslarning ruh haqidagi an'anaviy tushunchalarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Insonda bir emas uchta ruh mavjud ekan. Biri inson o'lganidan keyin samoga olib ketiladi (xanir); uni uchta farishta (yaxshilar ruhi) go'zal boqqa(sin-tyon) olib ketadi. Bog' rahbari Okonshante uni so'roq qiladi, yerda qilgan gunohlari va yaxshiliklariga qarab uni yana qayta yerga o'sha tanaga yuboradi yoki go'zal bog'da qoldiradi, yoki biron bir hayvon qiyofasiga kiritadi. Ikkinchi ruh esa tana ko'milgan yerda qoladi va uni do'zaxga (uni ham uch farishta) olib ketadilar. Uchinchi ruh esa havoda, o'z yashash joyiga yaqin qismida qoladi, uni esa farishta olib ketar ekan.

O'lganlar ruhi g'amxo'rlikni talab qilar ekan. Birinchi ruhga g'amxo'rlik Okonshantening qaroriga bog'liq. U yerga, o'z tanasiga qaytarilishi mumkin, bu uch, besh, yetti va undan ortiq kunlardan keyin amalga oshar ekan. Ko'milish kunini shaman belgilaydi. Ikkinchi ruhga g'amxo'rlik – tanada qolgan ruh – uni baxt tog'ini topib uning etagiga ko'mish bilan bog'liq. Bunday yerni topguncha murda bir necha marta mozordan olib yangi yerga ko'milaveradi. Uchinchi ruhga g'amxo'rlik esa hech qachon tugamaydi. Ba'zan uni oziqlantirish kerak, buning uchun shaman cho'chqa so'yib guruch qaynatib ularni ibodatxona joylashgan toqqa olib borishni buyuradi. Yana qaysidir ota-bobolardan birining ruhi xafa bo'lgan bo'lsa ularni yana yo'qlash kerak bo'ladi. [2:110-111]. Koreys halqida o'liklar ruhiga bo'lgan bunday g'amxo'rlikni ular dunyoqarashidagi tiriklar va o'liklar dunyosining o'zaro bog'liqlik tizimini kuchliligi va o'liklar ruhining tiriklar dunyosiga ta'siri bilan asoslash mumkin. Qadimiy koreyslarning ota-bobolar ruhiga sig'inish va g'amxo'rlik qilishi asosida "turli rasm-rusumlarning ijobiy ta'siriga, ruhning "holati" va "faoliyati"ni nazorat qilib turishdagi muhim bir omil ekanligiga va ruhning oila manfaati yo'lidagi ijobiy ishlarda "faolligi"ning muhimligiga bo'lgan ishonch yotadi. [27:41].

**Qadimiy Chosonda dastlabki falsafiy qarashlarning shakllanishi** Qadimiy Chosondagi dastlabki falsafiy qarashlar Xitoy ta'sirida shakllangan. Qadimiy koreys faylasuflari dunyoni ikkita omillar: er-kak, ijobiylik, yaxshilik, faollik ramzi bo'lmish *yan* va ayol, salbiylik, yovuzlik va faol bo'lmashlik ramzi bo'lmish *im*ning o'zaro ta'siri, chatishuvi va aralashuvidan paydo bo'lgan deb tushungan. Dunyo asosining ikkala kuchi (*yanki*: *ki*-yaxshilik va *imki* - yovuzlik) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan *Ki*ning kombinatsiyasi hamda besh asosiy unsur suv, yer, olov, metall va daraxt asosida yer va osmon paydo bo'ldi. Besh unurning turli tarkibiy qismda ekanligi sifat va miqdor jihatdan turli mavjudotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. [26:106].

Aynan mana shu besh element turli shoxliklar sulolasining paydo bo'lish asosida ham yotadi. Har bir sulola unga azaldan berilgan xususiyatlar va unga asos bo'lgan element (yer, suv, olov, metall va daraxt)ga xos bo'lgan "ijobiy sifatlar"ga asoslangan holda hukmronlik qilgan. Bu stixiyalar asta-sekin bir-biri bilan o'rin almashaveradi: yer daraxt bilan, daraxt metall bilan, metall olov bilan, olov suv bilan. Aynan mana shu almashishlar hukmron sulolarga ham xosdir. «Har bir sulola hukmronligi davrida unga asos bo'lgan stixiyaga xos ijobiy sifatlar o'zining taraqqiyot cho'qqisiga erishadi. Osmon sulolalarining hukmronlik muddatini o'z hukmi bilan tugata olmasligi sababli u bu ishni keyingi sulolaga xos bo'lgan qarashlar asosida amalga oshiradi. Jumladan, daraxt unsuriga xos bo'lgan sulolaning hukmronlik muddati tugaganini anglatuvchi belgi qurigan va barglari to'kilayotgan daraxtdir» [37:23].

*Ki* tushunchasi (*imki* va *yanki*) inson ruhi yoki koreyslar tan olganidek ruhlarning ham asosida yotadi. *Imki* «pek»ni -o'limdan so'ng esa «devga» aylanadigan ruhni hamda *yanki* - «xon»ni «ruhlarga» aylanadigan (aqli ruh)ni yaratadi. Koreyslarda «xon» qayta tug'iluvchi ruh sifatida tan olinadi. Reinkarnatsiya, ruhning inson yoki hayvon qiyofasida qayta tug'ilish g'oyasi aynan shu ruh bilan bog'liq. Ushbu g'oya buddizmdagi «ruhning qayta tug'ilish» g'oyasiga yaqindir. Lekin u Koreyada totemizm bilan bog'liq bulgan holda ancha qadimiyroq an'anadir. [7:171-172].

## 2 Bob. Uch davlat *hukmronligi* davrida konfutsiyachilik, buddizm va daosizm falsafasi

Er.av.1 asrga kelib Koreys yarim orolida uch yirik davlat shakllandi: *Koguryo* (er.av. 37 – 668 yillar), *Silla* (er.av.57 - 668 yillar) va *Pekche* (er.av. 18 – 660 yillar). Uch davlat hukmronligi davrida *yan* va *im* va dastlabki besh unsur haqidagi ta'limot o'zining keyingi rivojini topdi. Besh unsur ta'limoti esa bu davrga kelib dunyoning yaralishi haqidagi antologik bir ta'limot tizimiga aylandi. Har bir unsur uchun makonda aniq bir hudud va rang belgilandi: yerga – markaz va sariq rang, daraxtga-sharq va yashil rang, metallga-g'arb va oq rang, olovga-janub va qizil rang, suvga-shimol va qora rang. Besh unsurlik tizim universal tizimga, tabiat va jamiyatda o'zgaruvchan jarayonlarni anglash, afsona, matn va xabarlarining sirli ma'nosini tushunish kalitiga aylana bordi. Bu uch davlat hukmronligi davrida keyinchalik Koreya yarim orolida hukmron ta'limotga aylangan: buddizm, daosizm hamda ilgari paydo bo'lgan konfutsiyachilik tizimining diniy-falsafiy ta'limotlari keng tarqala boshladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'limotlar koreyslarning dunyoni tushunish borasidagi qadimiy diniy-mifologik ilmlarini siqib chiqarmadi, «aksincha undan ko'pgina tushunchalar va bilimlarni mavjud davrga moslagan holda qabul qildi» [20:401].

### Konfutsiyachilik

Konfutsiyachilik Koreyaga Qadimiy Choson davridayoq kirib keldi. 372 yilda esa Koguryo davlatida zodagon oilalar ta'lim oladigan *txekak* nomli konfutsiyachilikning oliy maktabi tashkil etildi. Bular bilan bir qatorda oddiy halq uchun *kendan* nomli konfutsiyachilik maktablari turli viloyatlarda faoliyat ko'rsatib keldi. IV asrda konfutsiyachilik Pekchega, VI asrda esa Silla davlatlariga kirib bordi.

Bu davrda konfutsiyachilik asosida xudoning kuch-qudrati va barcha narsa va hodisalarni boshqaruvchisi sifatida Osmonga sig'inish kuchayib bordi. Ota-onaga hurmat, shoxga halqning sadoqati, kichiklarning kattalarga bo'ysunishi, ayolning erini hurmat qilishiga asoslangan konfutsiyachilik bu davrga kelib davlat qurilishi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosiga aylandi. Hurmat tushunchasi butun jamiyatga singib bordi: oiladan tortib butun davlat miqyosida, natijada davlat-oila degan ijtimoiy model shakllandi.



Koreys konfutsiyachiligi mahalliy rasm-rusumlarni hech qanday to'siqsiz, muammosiz qabul qila boshladi. Masalan, unda ota-bobolar va buyuk shaxslar ruhiga g'amxo'rlik qilish keng yoyila bordi (Konfusiylar, xitoy mifologiyasidagi hikoyalar va koreys halqining tarixiy qahramonlari), qurbonlik keltirish va sig'inish uchun qurilgan ibodatxonalaridagi ruhlar (mahalliy yerlar, tog'lar, suvlarni, hamda tabiat kuchlarini – osmon, yer, shamol, yomg'ir va boshqalarni ximoyalovchi). Konfutsiyachilikda ruhsat berilgan ota-bobolar ruhiga g'amxo'rlikning o'ziga xos tomoni shundan iborat ediki, «o'lgan kishi ruhining yaxshi yoki yomon holatda bo'lishi va, shunga ko'ra, ularning o'z avlodlarining hayotiga bo'lgan ta'siri avlod tomonidan urf-odatlariga rioya qilinishiga, o'z navbatida ularning ma'naviy axloqiga ham bog'lagan holda talqin qilingan. Bobolar ruhiga sig'inishda ikki dunyoning (o'liklar va tiriklar dunyosi) o'zaro ta'siriga oid ikki narsani kuzatish mumkin. Qurbonlik keltirish va turli marosimlar o'tkazish bilan tiriklar bobolar ruhining, u tirikligida qanday inson bo'lganidan qat'iy nazar, tinchligini ta'minlay oladi, ikkinchi tomondan, xuddi shu marosimlar bobolarning o'z avlodiga bo'lgan munosabatini yumshatishga, agar ular bunga loyiq bo'lsa bo'lmasa, erisha oladilar.

Konfutsiyachilik besh unsur haqidagi ta'limotni ham qabul qildi. Buni konfutsiyachilikda mavjud bo'lgan jamiyatdagi besh xil munosabat (monarx va qo'l ostidagilar munosabati, ota-ona va farzandlar orasidagi munosabat, er-xotin o'rtasidagi munosabat, kattalar va kichiklar o'rtasidagi munosabat, do'stlar o'rtasidagi munosabat) haqidagi ta'limotdan hamda ma'naviyatning besh asosiy xususiyati haqidagi ta'limotdan (bag'rikenglik, to'g'ri fikrlash, to'g'ri axloq, bilishga intilish va haqqoniylik) yaqqol ko'rish mumkin.

**Buddaviylik** Buddaviylik – aniqrog'i uning Maxayana nomli yo'nalishi, Koreyaga eramizniig IV asrida Hindiston va Xitoy missionerlari tomonidan olib kirilgan edi.

Koreya yarim orolida buddizm mahalliy dinlar ta'sirida o'ziga xos xususiyatlar bilan boyidi. Buddha bu yerda mavjud sig'inish ob'ektlariga, bobolar ruhi va tabiiy kuchlarga sig'inishga qarshi qo'yilmadi, aksincha, «ular bilan bir qatorga qo'yib, bir-birini to'ldiruvchi va bobolar ruhiga bo'lgan e'tiqodni kuchaytiruvchi ma'bud sifatida qabul qilindi» [8:78]. Sillada buddaviy bayramlar sakkiz ruhga: osmon, buyuk tog'lar, buyuk daryolar, ajdaholar va

boshqa ruhlarga bag'ishlangan «Phalgvanxe» bayrami bilan birgalikda nishonlanar edi. Koguryoda osmon va g'orlar ruhiga sig'inilar edi. Pekcheda esa Osmon va Yer ruhiga sig'inilar edi.

Qisqa vaqt ichida buddaviylik uchala davlatning yuqori tabaqalari orasida tarqaldi. Tez kunlarda esa buddaviylik hukmron dinga aylandi.

Buddaviylik Koreyada tarqala borgan sari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'la boshladi. Ilk davrlarda uning tarkidunyochilik g'oyasi, ya'ni dunyoviy istaklardan voz kechish va ruhni poklashga yo'naltirilgan to'g'ri axlok-odob yo'lidan borish alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Tarkidunyochilikni targ'ib etish Silla shoxining maslahatchisi bo'lgan va davlat nazariyasiga aylangan «sakkiz narsadan voz kechish» dasturini ishlab chiqqan ruhoniylar Xeryana nomi bilan bog'liqdir. Man etilgan sakkiz narsalarga quyidagilar kirar edi: «Tirik jonzotni o'ldirmaslik, o'g'irlikka qo'l urmaslik, dangasalik va bema'ni xulqli bulmaslik, so'zlashuvda bemulohazalik, xulqda nokamtarlik, ichkilikka berilmaslik, xushbo'y hidlardan foydalanmaslik, gullardan uzoq yurish, rohatlanishdan o'zini tiyish» [37:33].

Tez orada Koreyada ortodoks buddaviylikdan farqli ravishda turli diniy sektalar, mazhablar paydo bo'la boshladi: Von Xyo (617–687 gg.) tashkil etgan Xedonchon mazxabi (sharq dengizlari mazxabi), Iy San (624–702 yilla) tomonidan tashkil etilgan «Xedon xvaomchon» mazxabi, shuningdek ruhoniylar Von Kvan qarashlarini sanab o'tish mumkin.

Von Xyo spirtli ichimlik ichishni, qo'shiq va raqslardan zavqlanishni uyatli deb hisoblamagan, hatto o'zi uylandi va to'liq tarkidunyochilikni targ'ib etuvchilarga qarshi chiqdi. Uning fikricha Maxayana maktabi g'oyasining tub mohiyati barcha narsalardan butkul voz kechishda emas, balki ko'ngil pokligidadir. Ruhoniylarning o'zini tiyishi va ont ichishi foydasizdir, agar ko'ngil pok bo'lmasa. «Men» individual ruh, ong degan ruhiy dunyoga faylasuf deyarli ontologik darajani beradi. Aynan «men»ning ruhi narsalarning tartibini belgilaydi: «Butun dunyo – faqat mening ongimda, dunyoning barcha qonunlari esa – faqat mening ruhimda» [8:127 dan iqtibos]. Bunga hatto barcha narsalarning eng dastlabki asosi bo'lmish dao ham kiradi: «Hatto «dao» («yo'l») barcha narsada mavjud bo'lsa ham axir oqibat u azaliy ruhga borib taqaladi» [37:35 dan iqtibos].

Iy Sanning ta'kidlashicha, hatto haqiqat ham ruhdadir. Haq yo'lidan borishni insonning bosgan qadami orqali aniqlanishi lozim: «buddaviylik qonun-qoidalarini tenglikka asoslagan, shu bois ular uchun yuqori tabaqa, quyi tabaqa, oliylar yoki pastlar degan tushunchalar begonadir.» [8:127dan iqtibos]. Hashamatli poytaxtda yashab noto'g'ri yo'lidan yurgandan ko'ra shox bo'lsa ham xujrada yashagani foydalibroq deb hisoblash Haq yo'lidan turib boshqarilayotganini anglatadi.

Von Kvan ham, shuningdek, ortodoks buddaviylikning dogmalaridan farq qiluvchi ta'limot bilan chiqqan. Ya'ni, u ortodoks buddaviylik ta'limotiga qarshi ravishda tirik jonzotni o'ldirish (albatta besabab emas) mumkin degan g'oyani ko'tarib chiqadi. Undan tashqari u o'zining etik qoidalaridan birida urushda qon to'kishdan, jangda qo'rqmaslikni talab etish edi.

**Daosizm** Daosizm – xitoy faylasuflari Lao-szi va Chjuan-szi ta'limoti. – Koreya yarimoroliga VII asr boshlarida kirib kelgan.

Daosizmga ko'ra, dunyo asosida bosh negiz sifatida *ki* («si» - xitoy daosizmida) hamda hayotning harakat va o'zgarish qonuni *do* («dao» - «yo'l» xitoy daosizmida) yotadi. Barcha narsalar doimiy o'zgarishdadir. Davlatni boshqarishda donishmand hukmdor daoga – narsalarning tabiiy harakatiga halaqit bermasligi kerak. Davlatning haqiqiy inqirozi hukmdorning daoga halaqit berishidan boshlanadi. Daosizm tarafdorlari bu ta'limotni amalda ham qo'lladilar. Pekche hukmdori Koguryoga boskinchilikni takrorlanganida uning qo'mondoni Mak Go Xe bostirib bormasdan ilgari shu bilan cheklanishni taklif etgan va bu fikrini shunday asoslagan: «Bizga qadimdan daolarning quyidagi rivoyati ma'lum: «Agar me'yorini bilsang uyat emas, vaqtida o'zingni to'xtata olsang xavf mavjud emas. Biz endi ko'p narsaga ega bo'ldik, biz yana ham ko'p talab qilishimiz lozimmi?» [ 37:37dan iqtibos].

Daosizm sekin-asta kuchaya bordi. Unga buddaviylik va konfutsiyachilikning muhim bir tarmog'i deb qarala boshlandi. «Uch davlatning tarixiy yilnomalari» («Koguryo yozishmalari) daosizmning ta'sir kuchi haqida shox saroyi amaldorlaridan birining tilidan shunday munosabat bildiriladi: «... Uch muqaddas ta'limot (konfutsiyachilik, buddaviylik va daosizm) bamisoli qozonning uch oyog'i, uning hatto bittasi bo'lmasa ham bilinadi.» [ 37:39dan iqtibos].

### 3 Bob. Qo'shma Silla va Koryo davlatlari hukmronligi davridagi falsafa taraqqiyoti

Koguryo, Pekche va Silla davlatlari o'rtasida doim o'zaro urushlar bo'lib turar edi. Oxir oqibat ular Silla davlati boshchiligida yagona davlat sifatida birlashtirildilar. Birlashgan Silla davlatining gullab yashnashi (668-935 yy.) VIII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Shohlikda ibodatxona marosimlari, me'morlik, ilm-fan, kitob nashri (ksilografiya usulida), san'at, adabiyot, savdo keng rivojlandi. Iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Lekin Koryo va Pekche davlatlari tarkibidagi yengilgan sulolalarning qarshi chiqishlari, hamda davlat rahbarlari orasidagi zodagonlarning hukumatni o'z qo'liga olish uchun qilgan turli harakatlari davlatni ancha kuchsizlantirib borar edi. Natijada Silla o'miga Koryo sulolasi hukumat tepasiga keladi (918-1392 yy.).

Koryo davlatining yutuqlari ham ko'zga ko'rinarli va ahamiyatli bo'ldi. Bunga asosan savdo, ilm-fan (astronomiya, matematika, geografiya, farmokologiya)ning taraqqiyoti, Gutenbergdan ikki yuz yil ilgari, 1234-yilda birinchi bor yuradigan metall yozuvning kashf etilishi; 80 000 daraxt po'stiga yozilgan buddaviylik sutralari to'liq to'plamlari kutubxonasining tashkil etilishi, «Samguk sagi» («Uch davlatning tarixiy yozishmalari») va «Samguk yusa» («Uch davlatning unutilgan faoliyatlari») kabi solnomalarning tuzilishi, shaxsiy maktablarning keng miqyosida yoyilishi va boshqalar dalildir.

Bu davr falsafiy qarashlarida besh unsur haqidagi ta'limot hali saqlanib qolgan edi. «Koryo tarixi»da na faqat dunyoning tuzilishi, balki yaxshilik va yomonlikning sabablari ham ko'rsatiladi. «Osmonga besh xil harakat, yerga beshta unsur xosdir. Inson hayoti ularning o'zaro ta'siridan iboratdir. Ular inson tanasidagi besh a'zodan chiqadi va tashqi dunyodagi besh alomatda o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, agar ularni jilovlab turilsa hamma narsa izidan chikmay turadi, aksincha jilovlanmasa bu holda u yaxshilikka olib kelmaydi. Birinchisi – yaxshilik alomati, ikkinchisi esa yomonlik, tartibsizlik olib keladi» [37:50dan iqtibos].

Shunday qilib, o'z tarkibiga inson, bilish va ma'naviyat haqidagi bilimlarni, besh unsur ta'limotini biriktirgan holda kosmogonik, geografik makon, ijtimoiy, antropologik, gnoseologik va etik tomonlarni o'zida mujassamlashtirgan to'liq bir tizimga aylandi. Bu tizim nafaqat dunyoni tavsiflab beruvchi, balki izohlovchi va

oldindan aytib beruvchi bir tizim vazifasini ham bajara boshladi. Bu tizimga ilova ob'ekti sifatida turli tuman narsalar kirishi mumkin edi: tabiatning dahshatli sirli hodisalari ma'nolarini va yirik tarixiy voqealarni izohlashdan tortib, to yashash joyini tanlashgacha bo'lgan muammolarni yechib bera olgan.

Buddaviylik davlatning rasmiy dini sifatida o'zining taraqqiyot cho'qqisiga yetdi. Buddaviylik monastirlari o'z hisobida kattagina boylik va mahalliy hukumat tomonidan berilgan yerlarni to'plab katta ta'sir kuchiga ega bo'la bordi. Ular bojdan ham ozod qilindilar. Buddizm avliyolari davlat miqyosida ham kattagina lavozimlarni egallay boshladilar.

Buddaviylik «kyochon» va «sonchon» sektalariga bo'lingan. Agar birinchi sektada buddaviylar targ'ib qilgan haqiqatga aql, ilm orqali erishish mumkin bo'lsa, ikkinchi sektada esa ichki hissiyot – tuygu orqali erishish mumkinligi targ'ib qilingan. Koreyadagi «sonchon» sektasi Xitoy buddaviyligining *chan* va yapon buddaviyligining *dzen* sektasi bilan deyarli birdir. Bulardan tashqari an'anaviy buddaviylikdan farq qiluvchi boshqa sektalar ham tashkil topgan. Jumladan, o'zini Buddaning Mirikom nomli yangi hayotiga qaytgan deb e'lon qilgan Kun Ye ta'limotida «dunyoni saqlab qolish» va insoniyatga yer yuzidagi jannatni yaratish g'oyalari paydo bo'la boshlagan.

Birlashgan Sillada uchdavlat hukmronligi davridayoq vujudga kelib «Xvaran» («Yashnayotgan yoshlar») tashkiloti mafkurasining asosi hisoblangan «*pxunnyu*» ta'limoti muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu tashkilot davlat miqyosidagi lavozimlarga yoshlarni tanlash maqsadida tuzilgan edi. Uning a'zolariga harbiylik san'ati, adabiyot, ma'naviyat asoslari, kalligrafiya o'qitilgan. «Xvaran»da ta'lim-tarbiya besh tamoyilga asoslangan bo'lib, u Von Kvan tomonidan ishlab chiqilgan: davlat rahbariga sadoqat, ota-onaga hurmat, do'stlar bilan samimiylik, urushda jangdan qochmaslik va tirik jonzotni sababsiz o'ldirmaslik. «Xvaran» ta'limoti buddaviylik, konfutsiyachilik va daosizm g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan. O'sha davrning taniqli faylasufi Chxve Chxi Von (858–951 gg.) «*pxunnyu*» g'oyalarini shunday ta'riflaydi: «Ular (shogirdlar, yoki xvaranlar) uyda yaxshi (namunali)xulqi bilan, tashqarida esa, – Konfusiy ta'limotiga ko'ra, o'z shoxiga sadoqatliligi bilan ajralib turadilar. Ko'z ilg'amas amaliyotlarni bajarishda, yoki so'z bilan ta'riflash

ojizlik qiladigan e'tiqodga rioya qilishda Laotszi prinsiplariga asoslanadilar. Yovuzlikka qo'l urmagan holda faqat yaxshilik amallarini bajarishda esa ular Sakya Muni ta'limoti yo'lidan boradilar». [12:136].

Birlashgan Silla hukmronligi hamda Koryo davri oxirlarida To Sonning «*chiri pxunsusol*» nomli ta'limotida buddaviylik ta'limoti oldindan ko'ra bilish – geomantiya ta'limoti bilan birlashib ketadi. Bu ta'limot *im* va *yaming* o'zaro munosabatlarining talqiniga asoslangan geksogramm, ya'ni oldindan ko'ra bilish tizimidan iboratdir. Ta'limotga ko'ra yashash joyini, ota-bobolar mozorini, davlat poytaxtlarini tanlash va ularni makondagi o'rmini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, geomantiyada yer yuziga alohida e'tibor qaratiladi. Lekin yerda hayot energiyasi har yerda birdek taqsimlanmagan. Shu bois, yashash joylari va ota-bobolar mozori energiya maksimal darajada bo'lgan joyda bo'lishini ta'minlash lozim. Odamlar sun'iy yo'llar bilan (yerni ishlash yoki buddistlar minoralarini qurdirish) ob'ektlar joylashgan yerlarga salbiy ta'sir qilishlari mumkin. Joyni to'g'ri tanlashda ko'pgina omillarni hisobga olish geomantiyani oldindan ko'ra bilishning murakkab bir tizimga aylanishiga sabab bo'ldi.

Koryo hukmronligi davri konfutsiyachilik va buddaviylik o'rtasidagi raqobatning kuchayishi bilan tavsiflandi. Buddaviylik hukmron din bo'lishiga qaramasdan, u ma'naviyat asosi, konfutsiyachilik esa davlat boshqarishning asosi sanalgan. Buddist monastirlari tomonidan yerlarni egallab olishga bo'lgan qarshiliklar, konfutsiyachilik, daosizm va mahalliy sektalar mafkurasining buddaviylik mafkurasi bilan qarama-qarshiligi, dehqonlar qo'zg'olonlari, sulolalar almashishiga olib kelgan feodal guruhlarining taxt uchun kurashlari oxir-oqibat konfutsiyachilik mafkuraviy yo'nalishining ham o'zgarishiga olib keldi. Xitoylik Chju Si hamda Pek I Chon, U Txak, Kvon Bu va Li Chi Xyonlarning tadqiqotlarini Koreyaga olib kelgan neokonfutsiyachilikning Koreyadagi pionerlaridan biri An Xyan (1243–1306) hisoblanadi.

#### 4 Bob. Ilk Choson davrida falsafiy qarashlarning shakllanishi

Hukumatga yangi Choson yoki Li (1392–1910) sulolasining kelishi neokonfutsiyachilik davlatda yangi mafkura shakllanishining asosi bo'lib qoldi. Ijtimoiy rivojlanishdagi talablar kundalik muammolarga buddaviylikdagi «nirvana»ga yetishishda rioya qilinadigan dunyoviy masalalarga befarqlik yo'sinida emas, balki ularga faol va amaliy munosabatda bo'lishni talab qilar edi, buddaviylik esa barcha qiyin muammolarning sababchisi deb e'lon qilingan edi. Buddistlar monastirlari dehqonlardan mahrum bo'ldilar, ularga qarashli yerlar hajmi esa bir necha barobarga qisqardi. Shu bois, daosizm ham o'z mavqeini yo'qotib bordi. Seulda va provinsiyalarda konfutsiyachilik maktablari ochila boshladi. Qirolning istak va qarorlarini amalga oshiruvchi Davlat Kengashi bilan bir qatorda Konfusiy ta'limoti olimlaridan tashkil topgan hukumat maslahatchilari palatasi ham tashkil qilingan edi.

Konfutsiyachilikni yetakchi ta'limot sifatida tasdiqlash Koreyada bir qancha asoratlar qoldirdi. Bir tomondan, boshqarishni markazlashtirishga xizmat qiluvchi konfutsiyachilikning Qirol hukumatiga barchaning so'zsiz bo'ysunish prinsipi va boshqaruvda ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan «oliynasab kishilar» sinfi vakillari xokimligi prinsipi tadqiq etildi. Ikkinchi tomondan esa, qirol oilasi a'zolariga ham tegishli bo'lgan konfusiachilikning «xatolarni tan olish va ularni to'g'irlash» asosida o'z-o'zini ma'naviy yuksaltirish prinsipi boshqarishda monarx tomonidan yaqinlar va olimlar tavsiyalarini hisobga olish imkoniyatini berdi. Koreyada qirollar halq bilan bo'lgan munosabatda bir necha bor o'z xatolarini tan olganlar va ularni to'g'irlashga va'da berganlar, olimlar va amaldorlar Koreya tarixida davlatdagi mavjud kamchiliklarni ochiq oydin aytganlar va monarxlarga qirol boshqaruvini yangilashga oid o'z taklif va muloxazalari loyihalarini jo'natganlar. Koreyada neokonfutsiyachilik xitoylik faylasuf Chju Si ta'limoti asosida shakllangan bo'lsa-da, o'z rivojida Koreyaga xos bo'lgan tomonlar bilan boyib bordi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, «Koreyada konfusiachilik haqida emas, Koreya konfutsiyachiligi haqida so'zlash mumkin». [27:61]

**Sallimxakpxa maktabi** XIV-XV asrlarda neokonfutsiyachilik Koreya-da ikki yo'nalishga ajraldi: Birinchisi – *sallimxakpxa* (tog' va o'rmonlar maktabi). Uning vakillarining - Li Seka (1328–1396) va Chon Mon Chju (1337–1392) - fikricha dunyo yaratilishining asosida «li» (ruhiy omil) yotadi. Konfutsiyachilik ta'limotiga asoslangan holda ular insonlar o'rtasidagi besh turdagi munosabatni (ota-o'g'il, katta va kichik, er-xotin, hukmdor va fuqaro hamda do'stlar o'rtasidagi munosabatlar) osmonning buzilmas qonuniyatlaridir deb hisoblaganlar. Li Sek buddistlar monastirlari boyliklarini tanqid ostiga olgan bo'lsa-da, uning buddaviylikka bo'lgan munosabati nigilistik emas edi. Buddaviylik uni bir siyosat instituti sifatida qoniqtirmas edi. Buddaviylik ta'limotining nazariy asosiga kelsak, ularning fikricha Budda va Konfusiy ta'limotining asosi birdir. Buni biz buddaviylikning «komillik yo'lida o'zini yenga olish» va konfutsiyachilikning «kamolotga yetish» ta'limotlarida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, u «buddaviylar – buyuk avliyolardir», buddaviylar «sutralari oliy ezgulikni himoyalovchi g'oyalari bilan to'ladi». Bu konfutsiyachilikning ota-bobolar ruhiga ishonishdek muhim qoidasiga ham tegishlidir: «Konfusiyning aytishicha, o'tganlar ruhiga ishonish qadimdan mavjud. Menimcha bu buddaviylikka ham juda mos ke'adi» [37:71 dan iqtibos].

Chon Mon Chju buddaviylikni tanqidida chegaralanmasdan uni siyosiy tomoniga ham o'tib ketadi va buddaviylik yo'lini shubha ostiga ham qo'yadi. Uning fikricha, ruhiy taraqqiyot yo'lida darveshona hayot kechirish, g'orlarda yolg'iz yashash, o't-o'lanlarni yeyish, odamlardan, oilasidan aloqani uzgan holda yashash shart emas, konfutsiyachilik taklif etgan ruhni takomillashtirish yo'li kundalik hayotda qo'llash mumkin bo'lgan yo'l bo'lib, faqat *li* ga rioya qilinsa bas.

Li Sek va Chon Mon Chju o'zlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida katta yer egalari tomonidan yerlarni egallab olishga qarshi bo'lgan me'yoridagi islohotchilik tarafdori bo'lganlar.

**Kvanxakpxa maktabi** *Kvanxakpxa* nomli ikkinchi yo'nalish vakillari –Chon Do Chon (tahallusi Sambon, 1337–1398) va Kvon Gin (1352–1409)lar buddaviylikni har tomonlama va radikal tanqid ostiga oladilar.



Chon Do Chonning falsafiy qarashlarida ikki xil: materiyaning birlamchiligi (moddiyizm) hamda ruhning birlamchiligi (idealizm) aralash holda mavjud edi. Bunday «dualistik»<sup>1</sup> qarashlar ko'pgina koreys faylasuflariga xosdir. Mir Chon Do Chon *ki* dunyoning moddiy asosi deb hisoblagan. Jism va ruhning tuzilishi *ki*ning jipslashishidir. *Ki* tarqalib ketishi bilan ular ham yo'qoladi. Ikkinchi tomondan, faylasuf dunyoning taraqqiyot qonunlarini belgilovchi ruh birlamchi bo'lmish *li*ni ham tan olgan. Barcha narsalar *li*ga ea bo'lib u ruhiyatda mavjud bo'ladi. Shu bois, «ruhiyat bo'shliqdan iborat bo'lsa-da, unda butun dunyo mavjuddir».

Dunyo beqiyos, chegarasiz va doimiy o'zgarishdadir. Bu o'zgarishlar umumiy va doimiydir. Kechagi kunni tugatuvchi bugungi kun o'zini tugatishga bo'lgan qadamdir. «O'zgarish, - deb yozadi faylasuf, - bu bugun mustahkam ravishdagi mavjudlikning tugashidir, bu kelajakda butkul yo'qoladigan bugundir»[ 37:79 dan iqtibos]. Yangining paydo bo'lishi va eskining yakson bo'lishini Chon Do Chon narsalarning *ki* bilan to'lishi va bo'shishi hamda uning tarqalish va yo'qolish jarayoni bilan bog'laydi. Eskidan yangiga o'tish ikkala hodisani o'z ichiga oluvchi doimiy jarayondir. O'zgarishdagi ikkala jarayon ham: eskining o'lishi va yangining tug'ilishi bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. «Paydo bo'lgan narsa hali o'lmaydi va hali paydo bo'lmagan narsa tug'ila boradi. Bu jarayonda hatto bir daqiqalik ham uzilish bo'lmaydi» [o'sha yerda]. Chon Do Chon, o'zgarishlar tabiati haqida gapirib u bu masalani hal qilishda g'arb falsafasidan bir necha asrga ilgarilab ketadi.

Chon Do Chon buddaviylikdagi abadiylik va ruhning ko'chib yurishiga oid nazariyasini tanqid ostiga oladi. U ruhning mavjudligini inson mavjudligi bilan bog'laydi, uning o'limi bilan ruh ham o'ladi, «tana paydo bo'lishi» bilan ruh ham paydo bo'ladi deb hisoblaydi.

Gnoseologiyada Chon Do Chon bilishni «tajribaga, narsalar va xatti-harakatlar bilan muloqotga asoslangan» bilish sifatida talqin

<sup>1</sup> Ovrupo mumtoz dualizmida mavjud ikki (moddiy va ruxiy) qarama-qarshi substansiyaning mavjudligi haqidagi nazariyaga o'xshash «*ki*» va «*li*»ni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish an'anasi ko'proq substratdagi o'zgarishlar determinanti bo'lmish ashyoviy va shakl yaratuvchanlik tamoyiligi bog'liqdir. Ayrim ta'limotlarda to'g'ridan-to'g'ri ishora qilinishiga qaramasdan koreys falsafiy ta'limotining hammasi ham «*li*»ni ovrupo falsafasidek ruxiy (g'oyaviy) dunyo bilan bog'layvermaydi.

etadi. U real mavjud bo'lgan narsa va jarayonlarning aksidir. O'rganilayotgan narsa qanchalik murakkab bo'lmasin (samoviy tanachalar, million yillarga teng zamon) ularni bilish mumkin.

O'zining axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarida Chon Do Chon jamiyatdagi mavjud «besh» turdagi munosabat konsepsiyasi tarafdori bo'lgan. Odamlarni faylasuf uch turga ajratadi: oliy donishmandlar, komillar va «o'z istaklarining quli» bo'lgan omma kabi turlarga ajratadi. Odamlar tabiatdan mehrlidir: o'z qilmishidan uyalish va boshqalarning yomon ishidan norozilik har bir kishiga xosdir. Lekin, shunday bo'lsa-da odamlar yomonlik, masalan, o'g'irlik qiladilar. Buning sababini Chon Do Chon ijtimoiy holatlarda, masalan, «ochlik va sovuqlik» hamda, «yuqori ma'naviyat»ning pasayishida ko'radi. Faylasuf, yetuk, komil davlatda hukmdor shoxona hayotga berilib ketmasligi, aksincha oddiy halq hayotiga e'tibor berishi va insonlarning yashash asosi bo'lgan dexqonchilikning mashaqqatlarini bilishi lozim, deb hisoblagan.

Halqning nochor axvolining sababini Chon Do Chon uni hayratga soladigan boylarning dangasaligida deb biladi: «Yerga ishlov beradigan bir kishi, iste'mol qiluvchi esa ikki kishi. Boy yana ham boyib boradi, kambag'al esa yana ham kambag'allashib boradi. Odamlar shu darajaga yetadilarki, hatto yashash uchun ham hech narsalari qolmaydi, natijada o'z joylaridan ketib qolib daydilarga aylanib ketadilar. ...Qanchalik dahshat! Bu yovuzlikni ta'riflashga so'z topa olmasan» [1 :21 dan iqtibos].

Kuchli va haqparvar davlat haqidagi ideal g'oyasi Chon Do Chonning yerlarni davlat tasarrufiga o'tkazish va uni dehqonlarga tarqatish, yerga cheklangan boj joriy qilish kabilarni nazarga olgan islohot borasidagi loyihalarida o'z aksini topdi

*Kvanxakpxaning* boshqa vakili Kvon Gin an'anaga ko'ra shakllangan besh unsur va insonlar o'rtasidagi besh xil munosabatni anglatuvchi *im* va *yamni* tan oladi. Uning antologiyasida avval *li*, keyin *ki*, keyin esa yengil, yorug', yuqoriga ko'tarilib osmonga aylanuvchi *yan*, keyin og'ir, bo'g'iq, pastga yo'nalib yerga aylanuvchi *im* paydo bo'ladi. Keyin fasllar almashinishi boshlanadi. Insonda *ki* va *li* to'liq ravishda, boshqa narsalar tarkibida esa qisman mavjud bo'ladi. Yer va osmon bo'lmish *li* inson tabiatiga xosdir, *ki* yer va osmon uning tanasidir. Insonning yuragi(sim)da *li* ham, *ki* ham bordir. [37:86-87].

## 5 Bob. XV-XVI asrlarda Chosonda falsafiy qarashlarning rivojlanishi

XV-XVI asrlar islohotlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyot davridir. Bu davrning muhim voqealaridan biri 1443 yilda koreys alfaviti xangilning yaratilishi bo'ldi. Xitoy ierogliflaridan farqli ravishda u xangil harflaridan tashkil topgan bulib ishlatish va eslab qolish uchun juda oson bo'lgan. Bu oddiy halqning savodli bo'lishiga katta yordam berdi.

Ilm-texnika sohasidagi taraqqiyot, avvalombor, amaliyotga bog'liq. Bu ob-havo va osmon jismlarini kuzatuvchi asboblari, samo yulduzlari haritasi, yomg'ir o'lchagichlar, topografiya asboblari, aniq ishlangan takvim, geografik ta'riflar, notalar yozuvi, quyosh va suv soatlari, qurollarni yasash, suv qurilmalari va kitob nashr etuvchi texnikalardan iborat bo'lgan.

Tabobat ilmini tizimga solishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. 365 kitobdan iborat «Davolash usullari» nomli, 85 kitobdan iborat «mahalliy dorilar haqida ma'lumot» nomli traktatlar yaratildi. Ikkinchi kitob kasalliklarga tashxis qo'yish bo'yicha 959 maqoladan, 10706 reseptdan va igna bilan davolash haqida 1477 xil tavsiyalardan iborat edi.

Tarixiy va geografik nashrlar juda keng miqyosda tarqadi. She'riyatda Koryo hukumati davrida shakllangan sichjo janri juda rivojlandi. Yangi hukumatni mustahkamlash va eski sulola tarafdorlariga kurash bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayon grajdanlik lirikasi janri sifatida shakllanishiga olib keldi. Peyzaj tasvirlari deyarli bo'lmagan va asosan ishqiy lirika bosh o'rinni egallagan. «XIV-XV asrlardagi sichjoning asosiy xususiyati – amaldor-shoimning o'z davri ijtimoiy-siyosiy hodisalariga nisbatan bo'lgan aniq va ravshan munosabatini va bu hodisalar ta'siri ostida yuz bergan shoir taqdiridagi o'zgarishni aks ettirishdan iboratdir» [19:96].

**Legistlar maktabi** Legistlar maktabining tashkil topishi (chuchxichuyxak) Chon Gvan Cho (1482-1519) nomi bilan bog'liqdir. Legistlar «inson tabiatiga xos gunox qilish»ga moyillikni yo'q qiluvchi qat'iy qonunlarga asoslangan markazlashgan yirik bir davlatni tashkil etish tarafdori bo'lganlar. Ularni chjusianlarga xos metafizik va sholastik g'oyalardan ko'ra

davlatni gullab yashnatadigan qonun va ularni amaliy natijalari ko'proq qiziqtirgan.

Chon Gvan Cho bu yo'lda ko'proq ilm olishga katta ahamiyat bergan. Ilm olish asosida matnlarni ko'r-ko'rona yodlash emas ilmiy mushohada yotishi lozim deb hisoblagan. Bundan kelib chiqqan holda mansab(kvago)ga ega bo'lish uchun nomigagina o'tkaziladigan imtihonlarga butunlay qarshi chiqqan va ularning o'rniga qaysi qatlam vakili bo'lishidan qat'iy nazar iqtidorli nomzodlarni tanlashga asoslangan imtihonlar tizimini taklif etgan.

Chon Gvan Cho ta'limotiga asosan axloq va ijtimoiy-siyosiy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan. Buning uchun u kerakli yo'lni to'g'ri aniqlab bera oladigan *do* normativiga murojaat etadi. *Do* ta'limoti konfutsiyachilikda mavjud bo'lgan hokimiyat va fuqaro, ota va o'g'il va boshqa shu turdagi munosabatlarga asoslangan. *Doga* rioya qilgan har bir shaxs kamolot cho'qqisiga yetib, afsonaviy «yetuk donishmand» darajasiga erishish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu bilan yetishib bo'lmaydigan narsa degan tushunchaga chek qo'yilgan. Ma'naviy yetuklikning muhim bir tomonlaridan biri sifatida Chon Gvan Cho har narsada me'yorga rioya qilish va o'zini tiya olish xususiyatini ko'rgan. Buni amalga oshirishda o'zaro yordam va ma'naviyatga rioya qilishda bir-birini terqash imkoniyatiga ega bo'lgan qishloq jamoalari katta ahamiyat kasb etishi mumkin deb hisoblagan. Chon Gvan Cho davlatni «kuch va qo'rqinch»ga asoslangan boshqaruvga qarshi ravishda «*do*» qoidalarini amalda qo'llash, «ma'naviy boshqarish» va «halqqa mehr berish»ga mo'ljallangan «qirol yo'li» nomli tamoyilni ishlab chiqqan.

**«Yugiron» maktabi** XV-XVI asrlarda moddiy asos -«*ki*»ning birlamchiligini tan olgan moddiyistik maktablar shakllandi. Bu davrdagi moddiyistik falsafiy maktablarning vakillari Kim Si Sip (1435-1493) va So Kyon Dok (Xvadam, 1489-1546)lar edi. «Yugiron» maktablari oxirgisining nomi bilan bog'liq.

Kim Si Sip moddiyizmi koreys va xitoy falsafasiga xos bo'lgan «Buyuk chegara» kategoriyasi hamda *li* va *ki* munosabatlarini talqin qilishda ko'zga tashlanadi. Faylasufning fikricha, «Buyuk chegara» - bu *im* va *yaming* birligidir. *Ki* va *li* ham birlikni tashkil etadi. *Ki*dagi o'zgarishlar *li*da aks etadi. «Sovuq va issiq keladi va ketadi, quyosh

va oy, kun va tun bir-biri bilan o'rin almashadi – bularning barchasini «*li*» «*ki*»ning o'zgarishlari va aylanish xususiyatlari orqali o'zida mujassamlashtirgan [37, 123 dan iqtibos].

Ruhni Kim Si Sip materiya bo'lgan *ki* bilan bog'laydi. *K*ning konsentratsiyasi hayotni paydo qiladi, uning yo'q bo'lishi esa o'limni olib keladi. O'lim bilan birga insonning ruhi ham o'ladi.

Kim Si Sip ateizm yo'liga kirgan birinchi koreys faylasuflaridan hisoblanadi. U nafaqat ruhning o'lmasligini, balki insonning jannat yoki do'zaxga tushishi haqidagi g'oyani g'irt yolg'on deb qattiq tanqid ostiga oladi. Osmonga yoki muqaddas narsalarga sig'inishni esa faqat bir an'ana sifatidagina tan olgan va bunda qurbonlik keltirishni butunlay inkor etgan. Qurbonlik va inson taqdiri o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q deydi faylasuf. Kim Si Sip shamanlarning bashoratchiligi va Koreyada keng tarqalgan geomantik fol ochishlarga ishonishni ham xuddi shunday tanqid ostiga oladi. Ularning yagona maqsadi pul ishlash bo'lib inson hayotiga hech qanday ta'sir ko'rasata olmaydilar. Omad va omadsizlik insonning o'ziga bog'liqdir. Insonlar ishonmoqchi bo'lgan hech qanday ruhlar mavjud emas, bu inson ongidagi xayollarning mevasidir holos.

Kim Si Sipning «insonga hurmat»ga asoslangan «insonparvarlik boshqaruv», «ieal boshqaruv» nomli konsepsiyasini onfutsiyachilikdagi jamiyat va oila to'g'risidagi ta'limotiga asoslangan. Qadimiylikni ideallashtiruvchi ko'pchilik konfutsiyachilardan farqli ravishda faylasuf tarixda taraqqiyot tarafdori bo'lgan.

Kim Si Sip o'z asarlarida oddiy halqning og'ir hayoti haqida qayg'urib yozgan. Kim Si Sip hokimlarning boy va farovon hayotini tanqid ostiga oladi. Qo'zg'olon va isyonlarning asosi hokimiyatning boshqarish tizimiga qarshilikdir: «Mamlakatni boshqarayotganlar oddiy halqni ezishdan o'zlarini tiya olmaydilar. Halq o'zining qarshilik tuyg'ularini dilning tubiga yashirib tashqaridan qaraganda xuddi bunga ko'nayotgandek tuyulsalar-da, bu uzoq cho'zilmaydi va axir-oqibat bu narsa katta qo'zg'olonlarga olib keladi» [o'sha joy, 126]. Ko'pincha mamlakat inqirozining sababini an'anaviy ma'naviyatning susayib qadimiylikdan («oltin asrdan») uzoqlashishida deb ko'rsatuvchilar oldida Kim Si Sipning boshqarishdagi o'ta qattiqligi

ijtimoiy kataklizmlarning asosi degan xulosalari ancha chuqur ma'no va mardlikni kasb etdi.

So Kyon Dok bu davrning eng yirik moddiyisti bo'ldi. Uning 18 yoshligida yaratgan asarlaridayoq «konkret narsalar»ni tadqiq etishga asoslangan metodologiyasi shakllanib bo'lgan edi.

So Kyon Dok yo'qlik absolyut bo'shliqdir degan fikrni inkor etadi. Uningcha dunyoviy makon yoki «Buyuk bo'shliq» mavjud narsadir. «Buyuk bo'shliq» makonda va zamonda cheksizdir. Bir qarashda makon bu bo'shliqdir, chunki uni ushlab, xidlab, tinglab bo'lmaydi. Lekin bu hech narsa degani emas: «Cheksiz makon shunchalik to'laki, unda biron bir bo'sh joy, hatto, bir tola sochga ham joy yo'qdir» [37:132dan iqtibos]. So Kyon Dok uchun moddiy substansiyadan tashqarida hech qanday bo'sh makon mavjud emas. Makonni to'ldirib turgan barcha narsa *ki*dir, u xuddi mayda va harakatlanuvchi changdek aniq va tanasiz substansiyadir. *K*ning zich joylashishi yer va osmonni, uning sust joylashishi esa boshqa barcha narsalarni paydo qilgan. Dunyodagi barcha narsalarning paydo bo'lishi *k*ning zichlashishi va sustlashishi natijasidir. *Ki* dunyoviy bo'shliqni butunlay to'ldiruvchi bo'lgani sababli u «Buyuk bo'shliq» bilan birdir. Bu ta'limotda biz ovrupodagi birinchi materiya sanalgan atomistik va efir ta'limotini kuzatamiz.

*Ki* – barcha narsalar shu bilan bir qatorda inson va uning ruhining ham manbaidir. U doimiy o'zgarish(jamlanish va tarqalish, quyuvlashish va kengayish)dadir. *Ki* yo'qolmas va abadiy, uni hech kim yaratmagan va yo'q qilib bo'lmaydi, uning boshi ham oxiri ham yo'qdir. *Ki* ning shakli o'zgaradi, lekin uning o'zi o'zgarmaydi. Shunday qilib, borliqning abadiyligi haqida ham, yo'q bo'lmasligi haqida ham gapirish mumkin.

So Kyon Dok yozadi: «Narsalar kelaveradi, kelaveradi, lekin hech qachon o'chirib tashlanmaydi, kelgan narsa tashqaridan qaraganda to'lib ketgandek tuyuladigan yerga ham ketaveradi.

Narsalar abadiydir, ularning paydo bo'lishining boshi yo'qdir...

Narsalar yo'q bo'laveradi, bo'laveradi, lekin yo'q bo'lib turganda ham barchasi yo'q bo'lmaydi. Hattoki, xech narsa qolmagan yerda ham albatta nimadir bo'ladi.

Narsalar g'oyib bo'laveradi, bo'laveradi, ularning yo'qolishining oxiri yo'qdir» [37:131 dan iqtibos].

Narsalarning yo'q bo'lmasligi *ki*ning butunlay yo'q bo'lmasligi bilan bog'liq. *Ki* sustlashishining chegarasi uning yupqa va bo'shliqdan tashkil topgan *ki*dan iborat bo'lishidir, aynan mana shu *ki*larning «boshi ham oxiri ham yo'q». Shunday qilib, *ki* abadiylikining sababi uning o'zidadir.

*Ki* ning doimiy harakat manbai uning o'zida mavjuddir: «Kutilmagan otilish va kutilmagan harakat. Kim ularni amalga oshiradi? Hammasi o'zi-o'zidan amalga oshadi. O'z-o'zidan va boshqacha bo'lishi mumkin emas... Unda turg'unlik va harakatning, boshlanish va tugashning sababi qaerda? Gap shundaki, «*ki*» mavjuddir. [o'sha yerda 136]. *Ki* da mavjud *im* va *yan*larning o'zaro ta'siri uning harakatining sababchisidir.

O'zaro ta'sir asosiy sababdir<sup>2</sup>. Bunday nazariyani So Kyon Dok xuddi yelpig'ichni yelpiganda keladigan shamol bilan qiyoslab tushuntiradi: «Bu shamol qaerdan keladi? Agar shamol yelpig'ichdan kelayapdi desak: unda u qaerda yashiringan? degan savol tug'iladi. Agar u yelpig'ichdan bo'lmasa. Unda qaerdan kelayapdi? U yelpig'ichdan kelishi mumkin emas, shu bilan birga u yelpig'ichdan kelmasligi ham mumkin emas. Menimcha, buning aksini, ya'ni yelpig'ichga bog'liq bo'lmagan holda bo'shliqdan o'z-o'zidan shamol kelayapdi desak ham to'g'ri bo'lmagan bo'lar edi. Shamolni yelpig'ich qo'zg'atishi mumkin, lekin paydo qilishi mumkin emas... agar yelpig'ich va «*ki*» bir-biriga ishqalansalar shamol paydo bo'lishi mumkin» [37:139dan iqtibos].

Harakatning o'zini esa So Kyon Dok aylana bo'yicha harakat deb tushungan: barcha narsalar *ki*dan paydo bo'ladi va uning o'ziga qaytadi. Bir vaqtning o'zida, «qaytish» esa harakatning yangi bosqichidir.

*Ki* va *li* munosabatlari masalasini faylasuf shunday hal etadi: *li* *ki*dagi o'zgarishlar yo'nalishini belgilovchi qonun sifatida *ki* dan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

So Kyon Dok ontologiyasi, bu davrning barcha falsafasidek, naturfalsafa doirasidan chetga chiqmadi. Falsafiy tushunchalar va

<sup>2</sup> «O'zaro ta'sirni sabab deb tushunish g'arbiy ovrupo falsafasida XVIII asrda paydo bo'ldi, Gegel esa uning ta'rifini bergan: «O'zaro ta'sir to'liq taraqqiy etuvchi sabab munosabatidir... O'zaro ta'sir, shubhasiz, sabab va harakat munosabatining haqiqiy sababidir» [3:335].

kategoriyalar jadvali ko'pincha obrazli misollar bilangina almashinadi. Koreyaning bu davrda tashqi dunyodan ajralganligi va uning hali yaxshi rivojlanmaganligi sababli aql mushohadasi o'rmini aniq bilimlar egalladi. Lekin, moddiyistik substansiyadek falsafaning jiddiy (abadiylik, yo'q bo'lmaslik, cheksizlik, absolyutlik, harakat manbai, o'z-o'zida bo'lish) masalalarini ta'riflashda g'arbiy Yevropa moddiyizmining XVI–XVII asrlar deistik va panteistik qarashlaridan oldinga qarab ketadi va XVIII asr fransuz moddiyizmiga yaqinlashadi.

Gnoseologiyada So Kyon Dok bilishning boshlanish nuqtasi – narsalarning o'zidir deydi. Tajriba, kuzatish, mantiqiy fikr – bilishning asosiy qurollaridir. Mumtoz matnlar olimlar tomonidan ijodiy mushohada qilinishi lozim. Bilish jarayonida olim ikkinchi darajali narsalardan e'tiborini uza olishi, tadqiqot markaziga diqqatini jamlay olishi lozim. Mantiqiy fikrlashda chegara bo'lmasligiga aniq ishonch So Kyon Dokni aqliy fikrlarni absolyutlashtirishga olib keladi: «Yuz bor o'ylab, oxiri yana o'sha fikrga qaytasan ... - dunyoni joyingdan qimirlamasdan turib bilish mumkin. Nima uchun imkoniyat bo'lgan vaqtda butunlay kitobga murojaat qilmasdan muammoni hal qilish mumkin emas?»[37:144dan iqtibos].

Etikaga oid konsepsiyasi inson tug'ilishidanoq tabiat in'om etgan «yer va osmon samimiyligi»ni tan olishga asoslangan, bunda u insonparvarlik va haqgo'ylikni nazarda tutgan. Lekin hissiy tuyg'ular xohishi va manfaatparastlik ularni yo'q qilib boradi, shu bois inson ma'naviyatini doimiy ravishda nazorat qilib turish lozim. Tarkidunyochilik hayoti faylasufda ideal hayotga nisbatan «bosiqlik» xususiyatlarini tarbiyaladi.

Bu davrning ko'pchilik olimlari qatorida So Kyon Dok ham oliynasab sinf vakillari tomonidan dehqonlarning yerini tortib olib ularni o'zlariga oilaviy mo'ror qilib olayotganlarini qattik tanqid ostiga oladi. Bu ishda faylasuf faqat oliynasablarnigina emas, balki shoxni ham ayblaydi. Shu bilan bir qatorda faylasuf hech qanday maqsadga foydasi bo'lmagan an'ana sifatida amal qilinadigan rasm-rusumlarga ham qarshi chiqadi.



«Churipxa» XVI asrda «yugiron» maktabi bilan bir qatorda maktabi faollik va shakl yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan «li»ning birlamchiligini tan oluvchi «churipxa» maktabi ham shakllandi. Uning yirik namoyondalari Li On Chok (1491–1553), Li Xvan (1501–1570)lardir.

Li On Chokning falsafiy qarashlari «Cheksizlik» va «Buyuk cheksizlik» nomli ta'limotlar talqinida o'z aksini topdi. U «Cheksizlik» va «Buyuk cheksizlik»ni aynan bir narsa deb ta'riflaydi. Ular borliqdan avvalgi mavjudlikning mohiyati va uning shaklidir. «Buyuk cheksizlik» barcha narsalarning substansion asosidir, uning tarkibida qolgan barcha narsalar imkoniyatlar sifatida mavjuddir. «Buyuk cheksizlik», - deb yozgan Li On Chok, - aniqlikdan mahrum, bepoyon, beshakl, uning tarkibida son-sanoqsiz shakllar mavjud. ...Unda osmon balandligining, yer bepoyonligining, quyosh va oy nurlarining manbai mavjud bo'lib, uning muqaddas yerlarida esa ruhiyat manbai, aynan unda shamollarning momaqaldiroq bilan almashinib daryolarning oqishi, haqqoniy hayot kechirish va ma'naviyat qoidalarining sabablari mujassamlashgandir» [37:112dan iqtibos].

O'zaro munosabat masalasida Li On Chok - «Buyuk cheksizlik» haqida gapirish *ki li*ning izidan boradi deyish bilan tengdir - deydi. Koreys faylasufining Li to'g'risidagi fikrlari Platon fikrlarini eslatadi. Har bir narsa sabab sifatida o'zining *li*siga ega: «Agar insonning tanasi mavjud bo'lsa demak *li* ham uning mavjudlik sababi sifatida mavjud; agar qandaydir tanachalar mavjud bo'lsa, u holda ularning sababi sifatida *li* ham mavjud bo'ladi; butun borliq mavjudligining sababi sifatida esa butun borliq *li*si mavjud bo'ladi; agar quyosh va oy mavjud bo'lsa, unda ularning sababi bo'lgan - *li* ham mavjuddir» [o'sha yerda 112-113].

Neokonfusianchilik an'anasiga ko'ra *do* va *li* Li On Chokda ma'naviy axloqning asosi va qoidalari, buysundirish va komillik tizimi sanaladi. Shu asosda neokonfusian idealizmi Li On Chokda antropologik xususiyat kasb etadi. Faylasuf turli yerlarda ta'kidlaydiki, «tanadan va tabiiy borliqdan tashqarida biron bir mavjudlik bo'lishi mumkin emas», «qandaydir mavjudlikni insoniy borliqdan tashqarida qidirish bo'shliqni qo'l bilan o'lchash bilan tengdir» va hokazolar. Ma'naviy komillikka erishish uchun odamlar, hattoki, eng mayda xatti harakatda ham, «samoviy *li*»ga yetishishga intilishlari

lozim. Shu bois, Li On Chok oliy tabaqa vakillarining to'kin-sochinlik va bitmas-tuganmas istaklarini tanqid ostiga oladi.

Faylasuf konfutsiyachilikdagi o'zaro munosabatlarda davlat miqyosida ham, oila miqyosida ham ijtimoiy qatlamlar ierarxiyasiga asoslangan «mutanosiblik»ka asoslangan oliy darajadagi «shox boshqaruvi» nazariyasini ilgari suradi. Bu munosabatlarning buzilishi, uning ta'kidlashicha, mamlakatda alg'ov-dalg'ovlik va qash-shoqlikka olib keladi.

O'sha davrning ko'pchilik faylasuflari qatori Li On Chok ham davlat mansablariga odamlarni iqtidorlariga qarab bir kishi tomonidan emas, ko'pchilik tomonidan tayinlanishi lozim deb hisoblagan.

«Li» maktabining ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Li Xvan (Txvege). Li Xvanga «bid'atlarni qoralash va haqiqatni sharaflash»ga chaqirish xos bo'lgan. Chjusianlikning himoyasiga va uning ravnaqi tomoniga o'tib Txvege unga qarshi turgan barcha falsafiy ta'limotlarni qoralaydi.

Boshqa barcha koreys faylasuflaridek li va ki ta'limotiga dualistik munosabat Txvegega ham xosdir. Uning aytishicha, ular ikkovi o'rtasida uzilmas aloqa mavjuddir: lidan tashqarida kining mavjud bo'lishi mumkin emas, li esa kisiz mavjud bo'lmaydi. Ki bu butun borliqni to'ldirib turgan moddiy narsalar bo'lib, u shakl va tanaga xos belgilardan iboratdir. Li esa – narsalarning sifat belgilarini, harakat va ulardagi o'zgarish yo'nalishini belgilovchi sababdir. Li Xvan yozadi: «Osmon osti jismlarining har biriga ularning aynan shunday yaratilganligining sababi va nima uchun ular hozir shunday holatda ekanligining qonuni mavjuddir. Unisi ham, bunisi ham «li»dir [37:168dan iqtibos]. Biroq, li va kining uzilmas aloqalarini tan olgan holda Txvege liga yetakchi o'rinni beradi. Li shakl yaratuvchi faol sabab va harakat qonuni sifatida xizmat qilsa, ki esa sust moddiy sifatida mavjud bo'ladi. Shu bois, li boshqaruvchi, ki esa unga tobe'dir; li avval keladi, ki esa unga ergashadi.

Li Xvanning barcha asarlari *kiga* markaziy o'rinni beruvchi yo'nalishlar vakillari bilan bahsdan tashkil topgan. So Kyon Dok ning *kning* yakson bo'lmasligi haqidagi tezisini tanqid ostiga olib, Li Xvan *kida* narsalar oxirigacha ko'rinmas holga kelishi mumkin, bu esa o'limni va narsaning ko'rinmas olamga o'tishini anglatadi deb isbotlamoqchi bo'ladi. Va umuman, Txvegening aytishicha, So Kyon Dok konsepsiyasida *kning* xususiyatlari aslida *liga* tegishlidir.

Buyuk bo'shliq o'zining barcha xususiyatlari (abadiylik, cheksizlik, yakson bo'lmaslik va x.k.) *ki emas li* dir.

Li Xvan shu bilan bir qatorda sub'ektiv idealizmni ham tanqid ostiga oladi va bunda u osmon ostidagi barcha narsalar bir insonning «yuragiga» sig'maydi degan fikrga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi dunyoni bir individ ongiga sig'dirish qarama-qarshi, ya'ni cheksizlikni cheklilikka sig'dirish mumkin degan noto'g'ri fikrga olib keladi.

Antropologiyada Txvege Chjusianlarning inson tabiatidagi «birlamchi» va «ikkilamchi» ta'limotiga asoslanadi. «Birlamchi tabiat» barcha insonlarga xosdir. «Ikkilamchi tabiat» esa ular orasidagi farqni ajratadi. Unga ko'ra odamlar «o'ta donishmandlar»ga, «oddiy»ga va «ongsizlar»ga bo'linadi. Birinchilari konfusian axloq normalariga mos keluvchi «samoviy li»ga rioya qilib ruhiy poklikda ham, bosgan qadamida ham komil insonlar namunasidir; ikkinchilari esa ma'naviy komillikka erishish lozimligini ko'ngilda tushunib, amalda unga juda kam rioya qiladiganlardir; uchinchi guruh vakillari esa «samoviy li»ni tushunishga urinmaydilar ham, unga rioya ham qilmaydiganlardir. Samoviy li yoki yaxshilik deganda «ijtimoiy» va «beminnat» degan kategoriyalar, yovuzlik deganda esa «shaxsiy» va «o'z manfaatini ko'zlash» degan kategoriyalar tushuniladi.

Li Xvan konfusianchilikdagi darveshona hayot targ'ibotchisi bo'lgan. «tana talablarini» yomonlar ekan, u na faqat to'kinlikni, balki yetarli darajadagi turar joy va taomni ham tanqid qiladi va buni «yovuzlik» deb hisoblaydi.

Cho Gvan Choga o'xshab Li Xvan o'z-o'zini boshqarish tashkiloti sifatida qishloq jamoasi loyihasi ishlab chiqadi. Li Xvan konfutsiyachilik (fuqaroning hukmronga, kattani kichikka va x.k.) tamoyillarini «insoniyat yo'lining buyuk asosi» deb hisoblagan. Shu bois, ularga davlatning har bir burchagida amal qilish juda muhimdir. Bundan kelib chiqqan holda qishloq jamoasi qonuni tarkibiga o'tonaga, kichiklarni kattalarga kuloq solmaganligini, do'stona mutanosiblik qoidasini, hamda to'y va o'lim marosimlarini buzganlarni jazolash uchun maxsus qoidalar kiritilgan. Yana «davlat miqyosidagi jamoa ma'naviyati va odatlarini buzganlar»ni, «mavjud qoidalarga qarshi chiqib parokandalikni keltirib chiqaruvchilar»ni, «rasmiiy hukumatni tan olmasdan uni tanqid qiluvchilar»ni, «o'zi past tabaqa vakili bo'la turib, olimlarga hurmatsizlik qiluvchilar»ni jazolashni ko'zda tutuvchi holatlar ham kiritilgan.

«Chugipxa»  
maktabi va Li I  
falsafasi

Neokonfutsiyachilik davri faylosuflarining oxirgi yirik namoyandasi «chugipxa» maktabi asoschisi Li I (Yulgok, 1536–1584) dir. Faylasufning merosi 44 jildlik to'plamga jamlangan bo'lib, u 1749 yilda to'liq asarlar to'plami sifatida nashr etilgan.

Li Xvanning shogirdi bo'lgan Yulgok keyinchalik ustoziga o'ylaridan chetlashadi. Uni Txvegening Chju Si yozuvlari tarafdorligi qoniqtirmagan. Li I neokonfusiyanchilar uchun hurmatda tengi yo'q shaxs bo'lib kelgan Chju Sini tanqid ostiga olib ustozidan yana ham ilgari ketadi. Li I ning «yugiron» maktabiga qarashi ham tanqidiy xarakterga ega.

Li I koreys falsafasining asosi sanalmish *li* va *ki* tushunchalarini talqin etishda Li Xvan va So Kyon Dok yullarini birlashtiruvchi dualistik yo'ldan boradi. Ikkala tomonni bir yoqlamalikda ayblaydi va ularni tanqid ostiga olib, Yulgok ular «boshlang'ich nuqta (buyuk cheksizlik) *li* da qanday mavjud bo'lsa *ki* da ham (*im* va *yan*) xuddi shunday mavjuddir» degan yuqori darajadagi talqinga yetib bormaganlikda ayblaydi» [38:20.]

Li I gox u nazariya, gox bu nazariya tarafdori bo'ladi. Ya'ni, ba'zan u «Buyuk cheksizlik»ni azaldan mavjud bo'lgan va o'zida *im* va *yan*ni mujassamlashtirgan yagona *ki* bilan nomlaydi.

Oxir oqibat, Li Ining dualizmi *li*ning yetakchi ahamiyat kasb etishini tan olish bilan yakunlanadi: «*Li*» va «*ki*» boshlanish nuqtasiga ega emas, shu bois birlamchilik haqida gapirish mumkin bo'lmaydi. Lekin agar ichki sabablarni chuqurroq o'rganib chiqiladigan bo'lsa... unda «*li*» bosh va muhim ekanligini aniqlash mumkin. Demak, aniq ravishda «*li*» birlamchi deyish mumkin bo'ladi... «*Li*» doim avval yuradi, «*ki*» esa unga ergashadi. Osmon va yer paydo bo'lishidan avval osmon va yerning «*li*»si mavjud bo'lgan deyish mumkin emas» [o'sha yerda, 185]. *Ki* bu faol bo'lmagan narsadir, *li* esa faol tamoyillardan bo'lib, narsalarning o'zgarish sababidir.

Yulgok gnoseologiyasida bilish hayot energiyasi joylashgan inson tana tuzilishi bilan bog'liqdir. Li I ning fikriga ko'ra bilish uch bosqichdan iborat: past, o'rta va oliy. Ularni tushuntirishda tog'ni anglash va kitob o'qish jarayonlarini misol keltiradi. Birinchi bosqich, xuddi kitobning o'zini emas uning faqat sarlavhasini o'qib chiqish, yoki tog'ni o'z ko'zi bilan ko'rmasdan boshqalardan u haqda eshitish jarayonlari bilan qiyoslab tushuntiradi. Ikkinchi bosqich esa «tog'ni uzoqdan ko'rish» bilan bog'liq. Kitob misolida solishtirsak esa ikkinchi

bosqich kitobni o'qib chiqish, lekin uning ma'nosini hali to'liq anglamaslik bilan bog'liq. Uchinchi, oliy bosqich, toqqa chiqish va uning o'zi nima ekanligini o'zi anglash bilan, yoki «kitobda yozilganning tub mohiyatini anglash» bilan tenglashtirilgan holda tushuntiradi.

Biroq, bilish bu bilan ham tugamaydi. Olingan bu bilimlarning haqligi insonning amaliy hayotida o'z tasdiqini topishi lozim. Bilimni amalda to'liq qo'llay olmasang uni to'liq bilim deb bo'lmaydi. «Sarlavha bilan tanishish va o'qiganni to'liq anglab yetish – deydi Yulgok – bu hali hammasi emas. Bilim faqat hayotga to'liq tadbiriq etilganidagina uni haqiqiy va tugal bilim deyish mumkin. Buni har kim shaxsan o'zi bajarishi lozim.»[37:191dan iqtibos]. Shunga ko'ra, Li I konfutsiyachilarni hayotdan uzilgan quruq nazariyotchilar sifatida tanqid ostiga oladi.

Haqiqiy bilimga ega bo'lgan kuchli talab va tashqi olamdagi narsalarning haqiqiylikiga to'liq ishonch faylasufning ateistik qarashlarining asosi bo'ldi. U buddistlarning jannat va do'zax haqidagi fikrlarini («buni hech kim o'z ko'zi bilan ko'rmagan»), shu bilan birga «savob», bashorat, fitnalar va boshqa tushunchalarni to'liq inkor etadi.

Yulgokning axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari an'anaviy konfutsiyachilik «shox yo'li», «insonparvar boshqaruv» va «halqqa muhabbat» kabi tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyat va axloq qoidalariga asoslanadi. Li I jamiyatdagi asosiy besh nuqsonlar sifatida: To'lanmagan qarzlari va turli ayblarni qarindosh va qo'shnilariga yuklatish tizimi; chegarasiz bojlar va poralar; tortiq va sovg'alar an'anasi; rahbarlarning poraxo'rliqi va boshqalarni ko'rsatadi. Bularning hammasi halqning yelkasiga yuk bo'lib tushadi, dehqonlar o'z turar joylaridan ketadilar, qishloqlar huvillab qoladi, mamlakat inqirozga yuz tutadi. Qo'zg'olon va jinoyatlar kuchayishining sababi ayrimlar aytganidek, inson fe'lidagi azaldan mavjud «yovuzlik» emas, balki halqning aynan shunday nochor axvolga tushishidir. Shu bois islohot - davr talabidir. «Ota bobolar qonuni»ni isloh qilish lozim, aks holda davlat inqirozga qarab yuz tutadi. Yulgok islohotlariga qarzlarni qarindosh va qo'shnilariga yuklatish tizimini yo'q qilish, soliqlarni kamaytirish, oliy tabaqa vakillari tasarrufidagi yerlarni kamaytirish, qullarga qisman ozodlik berish, poraxo'rlikka qarshi kurashish, so'z erkinligi, doimiy harbiy xizmatni joriy qilish, konfutsiyachilikka asoslangan qishloq jamoasini tashkil etish kabilar kirgan.

## 6 B o b. XVII – XIX asr birinchi yarmida Chosonda koreys falsafasiing rivojlanishi

Yaponlar bilan bo'lib o'tgan **imchjin** urushi (1592–1598) va 1627 va 1636–1637 yillarda manchjurlarning bostirib kirishi Koreyani inqirozga olib keldi. Iqtisod va hunarmandchilik ham inqirozga uchradi. Ishga yaroqli yerlar hajmi ikkidan uch qismga kamaydi. Hokimiyatning susayishi yerlarni o'zboshimchalik bilan egallanishiga olib keldi. Xazinani boyitish uchun hukumat dvoryanlik mansabini va undan past tabaqalarga turli kichik darajalarni (mansablarni) sota boshladi. Davlat mansablarini egallash uchun o'tkaziladigan imtihonlarga hatto krepostnoy zamindorlarga qul bo'lgan dehqonlarni kiritish hollari ham uchray boshladi. Ularni harbiy xizmatga ola boshlashdi. Shu orqali jamiyatdagi konfutsiyachilikning tabaqalarga asoslangan tizimining asosi yemirila bordi.

Urushdan keyingi iqtisodning rivojlanishi xususiy hunarmandchilik va pul-tovar munosabatlarini rivojlantirdi. Ishlov beriladigan yerlarning hajmi ko'paydi. Savdogarlar qatlami kengayib bordi. Yer savdosi bilan shug'ullanish ko'paydi. Mehnatni pulga sotish, ya'ni mardikorchiilik keng yoyildi. Tovar-pul munosabatlarining rivoji dehqonlar, mayda hunarmandlar va savdogarlarning inqiroziga olib keldi, natijada shaharlarga va Manjuriyaga ish qidirib boradigan odamlarning soni ko'paya bordi. XVIII asrdan boshlab mamlakatda dehqonlar qo'zg'oloni kuchaya bordi. Isloh qilish zarurati kuchaya bordi, biroq, chjusianlar eski muammolar borasidagi bahslarni hali tugatmagan edi.

Xitoy orqali xristian missionerlarining, hamda kemalari halokatga uchragan ovrupo dengizchilarining kirishi tufayli Koreyaga g'arb davlatlarining yutuqlari kirib kela boshladi. Koreyslar Ovrupo xaritalari, sug'orish inshootlari, g'arb pushkalari va mushketlari, astronomiyaga oid kitoblari, soatlar, kuzatish asboblari va katolisizm bilan tanisha boshladilar.

Biroq, Koreyani sof konfutsiyachilik davlati deb e'lon qilib, hukumat chetelliklar bilan har qanday aloqani taqiqlab qo'ydi. 1785 yili katoliklarga oid kitoblarni olib kelish butunlay man etildi va 1788 yili esa bunday kitoblarni musodara qilish va ularni yoqib tashlash boshlandi. Chjusianlikning bunday qattiq man etishlari va yoppasiga majburiy xatti harakatlariga qaramasdan mamlakatda

neokonfutsiyachilikka oppozitsiya kuchaya bordi. Birinchi bor Xo Gyunning (1569–1618) «Xon Gil Don haqida» xayoliy povesti yaratildi. Uning qahramoni xuddi Robin Guddek oliyjanob qaroqchi bo'lib, u ajoyib Yuldo oroliga tushib qoladi va u yerda ideal bir davlat quradi. Chjusianlikka oppozitsiyada «xan ta'limoti» maktabi va Van Yan-min izdoshlari turadi. Ortodoksal neokonfutsiyachilikka eng kuchli oppozitsiyada «aniq fanlar» (sirxak) maktabi turdi.

**XVII – XVIII asrlarda «Chugiron» maktabi** Koreyaning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida bir-biriga qarama-qarshi maktablarning paydo bo'lishi avval mavjud bo'lgan falsafiy yo'nalishlarga to'siq bo'lmadi.

XVII–XVIII asrlarda Li Ining g'oyalari Son Si Rel (1607–1689) va Xan Von Chin (Namdan, 1682–1750)larning qarashlarida o'z aksini topdi.

Son Si Rel *ki* va *li* ning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Biroq, u bu munosabatni faqat birlamchilik, doimo harakatda bo'lishlik va o'zgaruvchanlik masalalaridagina bir-biridan ajratadi. Birinchi holda (birlamchilik masalalasida) faylasuf *li*ning birlamchiligini tan oladi. *Li* va *ki* ning paydo bo'lgandan keyingi munosabati, hamda ularning harakati va turg'unligi borasida esa ular birlamchilik yoki ikkilamchilik ahamiyati yo'qolib ular bab-barobar faoliyat ko'rsatadilar deb hisoblay boshlaydilar.

Xan Von Chin ham *li* va *ki*larning o'zaro munosabati masalasi xuddi shunday fikrda edi. Biroq, bu masalani hal qilishda kelishish tomonga o'tish unda qarama-qarshilik paydo bo'lishiga olib keladi. Bir tomondan, Namdan *li*ning birlamchiligini tasdiqlaydi: ««Li»ning yetakchi ekanligini tan olish – bu haqiqiy ta'limdir, «ki»ni yetakchi deb tan olish esa - bid'atdir» [37:301dan iqtibos]. Boshqa tomondan esa, u barcha borliq «ki»dan paydo bo'lgan va u yana «ki»ga qaytadi, – deydi. Dunyoda barcha narsa paydo bo'lish va yo'qolishga mahkum, faqat «ki»gina abadiydir.

Borliqning paydo bo'lishi turli almashinishlar jarayonida amalga oshgan deb hisoblaydi Namdan: bo'shliqdan (azaliy bo'shliqdan) suyuqlikka va suyuqlikdan qattiq jismlarga aylanish jarayonini nazarda tutadi. Tabiat yaralishidan ham avval mavjud bo'lgan azaliy *ki*ni u azaliy bo'shliqqa tarqagan namlik deb tushungan. Yengil va yupqa qiyofada osmon, og'ir va bo'g'iq qiyofada yer, qattiq, yumshoq,

quruq va nam tuzilishda koinotning besh unsuri (metall, daraxt, olov, suv, tuproq) paydo bo'ldi va ularning turli holda o'zaro birlashishi natijasida jamiki borliq yaraldi [37:302].

Xan Von Chin buddaviylikdagi ruhning o'lmasligi ta'limotini, uning tanadan tanaga ko'chib yurishi va abadiylikni tanqid ostiga olib bu dunyoda har narsa o'limga mahkum deydi. Biroq, u ruh inson o'lganidan keyin darhol yo'qolmaydi deb hisoblaydi. Bu davrda ruh biron bir yomonlik qilmasligi uchun qurbonlik keltirish zarur deydi.

Gnoseologiyada Xan Von Chin «ilmdan amaliyotga» va «amaliyotdan ilmga» degan an'anaviy ta'limotning bir-biriga qarama-qarshiligini yengib o'tishga harakat qiladi. Bilish jarayoni ikki bosqichdan iborat: birinchi bosqichda «ilm amaliyotdan oldinda turadi», ikkinchi bosqichda esa «ilm amaliyotga eragashadi» deyiladi. Bilish nazariyasidagi Xan Von Chinning ilm va amaliyot haqidagi nazariyasi Koreys faylasuflari tomonidan tug'ma ilm va Koreyada keng tarqalgan taqdirning azaldan yaratilganligini tan olishni inkor qilishga asos bo'ldi. O'z taqdirini yaratish va uni o'zgartirishning asosida tinimsiz mehnat yotadi, – deb hisoblaydi Xan Von Chin.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlarda esa Xan Von Chin «qonunlarni o'zgartirish» konsepsiyasiga suyanadi. Li I esa eskirib qolgan qonunlarni o'zgartirish lozim deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, u qadimgi Xitoy etiketini o'zgartirmaslik borasidagi urinishlarni tanqid ostiga oladi.

**«Xan ta'limoti»  
maktabi**

«Xan ta'limoti» yoki «tanqidiy tadqiqotlar» maktabi Chju Siga qarshi chiqadi va to'g'ridan - to'g'ri Xan sulolasi davridagi qadimiy Xitoyning mumtoz matnlariga murojaat etadi. Ushbu maktab Yun Xyu (1617–1680), Pak Se Dan (1629–1703) va boshqalarning faoliyati bilan bog'liq.

Chjusianlik deyarli hukmron mafkura sifatida mavjud bo'lgan bir davrda undan farqlanuvchi barcha oqimlar yeretik oqim sifatida talqin etildi, ularning vakillari esa quvg'inga solindi. Jumladan, Yun Xyu o'z qarashlari uchun o'ldirilgan edi, Pak Se Dan esa Chju Siga tuhmat qilganlikda ayblangan edi, uning asarlari esa yo'q qilinib o'zi surgun qilingan edi.

Yun Xyu ontologiyasi moddiyistik xarakterga ega. Faylasuf «ki»dagi «Buyuk cheksizlik»ni na faqat bir – biriga tenglashtiradi, balki «ki» azaliy bo'shliq (Buyuk cheksizlik) dan bunyod bo'lgandir



deydi. «Ki»dan to'rt unsur paydo bo'lgandir. «Ki» nafaqat borliq va tabiiy hodisalarning asosida, balki inson ruhi, uning bilish xususiyatlari va fe'lining asosida ham yotadi.

Pak Se Dan falsafasi ham moddiyistik qarashlar asosida shakllandi. «Do» kategoriyasiga murojaat etib faylasuf uni Osmondan oldindan belgilab berilgan abstrakt bir qonuniyat yoki yo'l sifatida emas balki moddiy substansiya («buyum») va uning ko'rinishlari sifatida talqin etadi. Jumladan, Lao-szining «Daodeszin» kitobi haqida gapirib u shunday deydi: «Do» buyum, borliqni anglatadi, ism esa mavjud narsani anglatadi... Buyum ko'rinmasligi mumkin emas, ko'ringan narsa esa buyum bo'lishi mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, borliq va bo'shliqning asosi birdir, lekin ularning har birining o'z nomi bor» [37:316-317 dan iqtibos].

Borliqning asosida «ki» yotadi. Borliqning paydo bo'lish jarayoni xilma xil bo'lib u quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: «ki» - «jismlar shakli» - «hayot» - «fikir».

Agar falsafiy ontologiya sohasida «xan ta'limoti» vakillari chjusianlikka qarshi chiqqan bo'lsalar, ma'naviyat borasida an'anaviy konfutsiyachilik qoidalariga amal qilganlar.

**Van Yan-min** XVI asrdan boshlab koreys faylasuflari orasida xitoylik Van Yan-min (1472–1528)ning sub'ektiv-idealistik g'oyalari tarqala boshladi. Van Yan-min qarashlariga ko'ra ongdan tashqarida na osmon, na yer, na borliq mavjuddir: «Yurak [ong] – barcha narsaning ildizi va manbaidir... Bizning ongimizdan tashqarida hech narsa mavjud emas»[10:182dan iqtibos]. Narsalar qonuniyati (*li*) faqat ongimizdagina mavjuddir. Faylasufning fikricha, bizning bilimlarimiz tug'ma sezish qobiliyatiga ega, tajriba esa faqat shubha olib keladi.

Xitoylik faylasufning Koreyadagi dastlabki tarafdorlaridan Nam On Gyon, Chxve Myon Gil va Chan Yularni sanab o'tish mumkin. Van Yan-min maktabining XVII asrdagi eng yirik namoyondalaridan biri Chon Che Du (1649–1736) dir. Keyinchalik uning qarashlarini Li Gvan Sa, Li Gvan Sin, Min Gak i Li Chxun Iklar yanada rivojlantirdilar.

Maktabning falsafiy konsepsiyasi «yurak [ong] «*li*»ning o'zidir» degan tezisga asoslandi». Bu bilan, neokonfutsiyachilikda an'anaviy

tarzda ob'ektiv ruhiy omil sifatida talqin etilgan «li», birinchi bor sub'ektga tegishli bo'lgan bir narsa sifatida talqin etila boshlandi.

Gnoseologiyada maktabning asosiy tezisi «ilm va amaliyot birligi» prinsipiga asoslandi. Uning ikkinchi punkti esa insonning tug'ma sezish qobiliyatiga asoslangan ilm va uning bilish xususiyatlarini tan olish bo'lgan. Biroq, ular amaliyot jarayonida ilmning imkoniyatini inkor etmaganlar. Ammo, haqiqat nima, yaxshilik nima, yomonlik nima ekanligini ajratish uchun faqat tug'ma ilmlarga asoslanish noto'g'ridir.

#### **Im Son Chu falsafasi**

XVIII asr Koreys moddiyistik falsafasining yirik namoyondalaridan biri Im Son Chu (Nokmun, 1711–1788)dir.

Im Son Chu o'z asarlarida Yulgokning davomchisi sifatida o'zini namoyon etgan bo'lsa-da, ko'pgina muhim masalalarda uning qarashlari Li I ta'limotidan anchagina farq qiladi. Jumladan, bir joyda Li I *ki* va *li* uzviy bog'liqlar desa, boshqa yerda esa – *li* har yerda mavjud, *ki* esa chegaralangandir deydi. Im Son Chu Li Ining bu ikki tezizining bir-biriga qarama qarshi ekanligini ko'rsatib beradi. Agar *ki* va *li* bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lsalar, undan kelib chiqqan holda *li* bor yerda o'z-o'zidan *ki* ham bo'lishi kerak. Bunga ko'ra, *li* ga har yerda mavjud bo'lish xos bo'lsa, bu xususiyatga *ki* ham ega bo'lishi lozim.

Bu qarama-qarshilikni yo'qotishdan maqsad Im Son Chuda *li* va *ki* ni tenglashtirish va bu bilan Yulgok dualizmi doktrinasini davom ettirish bo'lmagan. Faylasuf dualizm tomoniga emas, moddiyistik monizm tomoniga, ya'ni *ki* ni borliqning absolyut substansiyalik mohiyatini talqin etmoqchi bo'lgan. Nokmun ontologiyasining mohiyati uning quyidagi fragmentida ifodalangan: «Borliqda yuqori ham, past ham mavjud emas, uning na boshi bor, na oxiri. Uning to'lishi va siyraklashishi tabiatning paydo bo'lishiga olib keladi; buyumlarning va insonning paydo bo'lishiga faqatgina «ki» sababchidir. Bu yerda «ki» kirishi mumkin bo'lgan hech qanday joy yo'q. «Ki»ning aynan shu asnoda harakat qilishini va shunchalik ta'sirchan bo'lishini kim aniqlab bera oladi? Hamma narsa o'z-o'zidan sodir bo'ladi». [37:324dan iqtibos].

Nokmunning azaliyati absolyut, moddiy, makon va zamonda cheksiz va chegarasiz substansiya; unga ichki dinamika va harakat

xosdir. Harakatning manbai esa *ki*ga xos bo'lgan *im* va *yaming* o'zaro ta'sirining natijasidir. *Li* esa qonuniyat bo'lib u *ki*ga ham xosdir va undan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi.

Im Son Chuning bilish nazariyasi quyidagi prinsiplarga asoslanadi: anglash xususiyatining asosida *ki* yotadi; fikrlash, his qilish, anglash va tuyg'ular tashqi dunyo bilan aloqada namoyon bo'ladi; haqiqiy bilim amaliyotga asoslanishi lozim; barcha odamlarning «ruhi» bir xildir; «oliy donishmand» va «omma orasidagi inson» ruhi bir-biridan farqlanmaydi; bilish «ruhning oliylik dunyosida adashishi»ga emas, balki «muhim muammolarni hal qilish»ga qaratilgan bo'lishi lozim.

Faylasuf «srxak» vakillarining islohot loyihalariga salbiy qaragan. Dehqonlarning og'ir axvolining sababini yerga nisbatan yer ishlovchilar sonining ko'pligida ko'radi. Shu bois, buni tuzatish yo'lini qiynalغان dehqonlarga yordam berishda deb hisoblagan.

#### **XVII asrda «Srxak» maktabining shakllanishi**

«Haqiqatga erishish yo'lida aniq faktlarga intilish» shiorini ilgari surgan srxak maktabi vakillari mamlakatni zamonaviylashtirish islohotlari loyihasini tuzib Koreyadagi mavjud holatni har tomonlama taxlil va tanqid ostiga oldilar. Bu orqali mavjud axloqiy-metafizik muammolardan va spekulativ bahslardan tabiatni, mamlakatning dolzarb siyosiy-iqtisodiy muammolarini o'rganish va amaliy harakatlarga o'tish jarayoni amalga oshirildi.

Ushbu maktabga umumiy tavsif bergan holda Yu.V. Vanin yozadi: «Rasmiy jihatdan srxak vakillari o'z faoliyatida konfutsiyachilik ta'limoti doirasidan tashqariga chiqmadilar. Fikr bildirish usulida, isbotlar tizimini berishda azaldan mavjud an'analarga rioya qilinar edi. Biroq, o'rgangan uslubda fikr bildirish ortida esa butunlay yangi ma'no, o'sha davrda hukmron bo'lgan mazmunsiz sholastikaga bog'liq bo'lmagan ma'no yashirinib yotar edi. Ortodoksal chjusianlik nazariyotchilari asosan qadimiy muqaddas kitoblarga turli tuman izohlar yozish bilan shug'ullanayotgan bir paytda srxak tarafdorlari tabiiy fanlarni o'rganish bilan shug'ullandilar.» [9:248].

«Srxak»ka asos solish g'oyalarining pionerlari Li Su Gvan (1563–1627), Xan Pek Kyom (1552–1615) i Kim Yuk (1580–1658)lar bo'ldilar. Li Su Gvan Koreyaning yakkalanganligini tanqid ostiga olib halqaro aloqalar tarafdori bo'ldi. Realizm prisiplariga

asoslangan holda olim astronomiya, mexanika, tarix, geografiya, kartografiya, din, adabiyot, san'at va etnografiya sohalaridagi mavjud qarashlarni qayta ko'rib chiqdi. Tarix va geografiyadagi konservativ qarashlarni qayta ko'rib chiqishni Xan Pek Kyom asarlarida ham kuzatish mumkin.

Lyu Xen Von (Pange, 1622–1673) sirxakning maktab sifatida shakllanishiga asos solgan. U falsafaga oid («Li va ki haqida traktat», «Narsalar prinsipi», «Konfutsiyachilik qonunlari haqida savol va javoblar», «Yurak va do haqida»), tarixga oid («Koreya tarixi haqida tadqiqot», «Koreya tarixining asosiy holatlarini bayon etish namunasi»), geografiyaga oid («Sayohat kundaliklari», «Geografik tavsirlar»), lingvistikaga oid («To'g'ri talaffuzni boshqarish»), harbiy sohaga oid («Taktika haqida ko'chirmalar») kabi asarlar muallifidir. Pange Ovrupo tabiiy fanlar ilmi bilan juda yaxshi tanish edi.

*Ki* va *li* haqida fikr yuritib faylasuf shunday deydi: narsalar qonuniyati ularning o'zidagina mavjuddir va faqat ularning o'zidagina namoyon bo'la oladi: «narsalar bo'lmaganda ularning «li»si ham o'zini namoyon bo'la olgan bo'lmas edi». Lyu Xe Von falsafasiga ateistik qarash xosdir. Har bir tasdiq faktlar va isbotlarga asoslanishi lozim. Aniq bilimga ega bo'lmagan din va mistika bu talablarga javob bera olmaydi. Faylasuf xurofotga, taqdirni bashorat qilish, fiziognomika va shamanizmlarga qarshi chiqdi va ularni tanqid ostiga oldi. Buddaviylikni esa mamlakatga zarar deb hisoblab undan voz kechishga chaqirdi.

Ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ota-bobolar izidan borish va shaxsning ma'naviyatini kamolga yetkazishda ko'rgan neokonfusiachilardan farqli ravishda, Lyu Xen Von muammoni hal qilishda eng asosiy o'rinni ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda deb bilgan. Pange islohotlar loyihasi quyidagilardan iborat: 1) yerlarni umumlashtirish va ularni buddaviylar, shamanlar, geyshalardan tashqari barchaga teng taqsimlash; 2) «kvago» imtihon tizimini tavsiyalar tizimiga almashtirish; 3) barchaga bir xil imkoniyat yaratish, qullikni, oliy va past tabaqalarga ajratishni, qonuniy va noqonuniy tug'ilganlikni bekor qilish; 4) davlat tizimini isloh qilish va shox oilasini ta'minlovchi byudjetni chegaralash; 5) yangi ilmlarni kiritish; 6) inson huquqlarini hurmat qilish, jazolarni liberallashtirish, qiynoqlarni man qilish; 7) pul-tovar munosabatlarini rivojlantirish, yagona soliq tizimini joriy etish.

**XVIII asrda «sirxak»  
maktabi qarashlarining  
shakllanishi**

«Sirxak» mafkurasi XVIII asrda Li Ik (1682–1764) ta'limotlarida hamda «pukxak» («Shimoldan kelgan ilm») maktabi vakillari tomonidan yanada rivojlantirildi.

Li Ik (Sonxo) koreys ensiklopediyachilari pleyadasiga kiradi. Uning ilmlar doirasiga falsafa, matematika, astronomiya, tarix, geografiya, kartografiya, etnografiya, harbiy ta'lim va adabiyot kirgan.

Li Ik ovrupo ilmi yutuqlarining ayrimlari bilan yaxshi tanish edi. Bu unga konfutsiyachilikdan farqli qiluvchi dunyoning yangi haritasini yaratishiga imkon yaratdi. O'zi bilan o'zi qolib ketgan Koreyada hattoki XVIII asrda ham dunyo haqida sodda naturfalsafiy qarashlar mavjud bo'lgan bir paytda Li Ikning Yer sharining dumaloqligi va uning o'z o'qi atrofida aylanishi, Yer, Oy va Quyoshlarning aniq hajmi, Oyning Quyosh nurlari yordamida yorug'lik taratishi haqidagi inqilobiy hamda tabiiy ilmiy fikrlari Koreya uchun juda katta yangilik bo'ldi. Li Ik shu bilan bir qatorda suvning (okean va dengizlarning) ko'tarilishi va pasayishi, yog'inlar, yer qimirlashi, issiqlining o'zgaruvchanligi va boshqalar haqida ham tabiiy ilmiy izohlar beradi.

Sonxo koinotni ki bilan to'lgan holda tasvirlagan. Kisiz hech narsa o'zini namoyon eta olmaydi. Jismlarning turli shaklda bo'lishiing asosida im va yan yotadi. Li va Ki tarafdorlari o'rtasida ko'p asrlardan beri davom etib kelayotga bahsni hal qilish maqsadida Li Ik sintetik bir yo'lni taklif etadi: ««Li» va «ki» bir kuni paydo bo'lib birgalikda yashay boshladilar; shu bois «li» birlamchi deyuvcilar ham haq, «ki» birlamchi deyuvcilar ham haqdirlar» [37:230dan iqtibos]. Shunday qilib, butun borliq ularning birligidan iboratdir.

Li Ik *ki*ni ikki turga ajratadi: teki (katta *ki*) abadiy bosh sabab, moddiy substansiya, va soki (kichik *ki*), alohida narsalar asosida yotuvchi va o'tkinchi nisbiy harakterga ega bo'lgan *ki*.

*Ki* nafaqat moddiy narsalar asosi balki ruhning ham asosidir. Li Ik to'g'ridan to'g'ri ta'riflaydiki, «ruh – bu kidir». *Ki* uning yig'indisi mustahkam bo'lganida u shaklga kira boshlaydi va o'z-o'zidan anglash xususiyati ham shakllanadi. Shunday qilib, har bir bunyodga kelgan shakl ruhiyatga ega. Li Ikning ayrim qarashlarida gilozoizm va panpsixizm elementlarini kuzatish mumkin, ayrim fikrlarida esa faylasuf aniq ravishda tushuncha beradiki, ruh ongli bir narsa sifatida faqat insondagina mavjud bo'lishi mumkin.

Oyna yoki suvning yuzidan farqli ravishda ruh o'zida narsalarni faol aks ettiradi. Bilish bir joyda turib qolishi kerak emas. Bilim boyitib borilishi lozim, bilimni oshirish passiv va stixiyali emas, balki faol va ongli ravishda bo'lishi lozim: «Bilgan narsada turib qolmasdan uning o'rganilmagan tomonini o'rgangan yaxshiroq; hech narsa tushunmagandan ko'ra uni tushunishga harakat qilgan yaxshiroq; har narsani o'zicha tashlab qo'ygandan ko'ra qilinmagan ishni amalga oshirgan yaxshiroq. Taraqqiyot aynan shundan iborat» [o'sha yerda 229]. Bilishning asosi aqlning faoliyatidan iboratdir. Bilishni beshta hissiy a'zo va yurak (ruh) amalga oshiradi. Bilishning haqiqiyiligini amaliy hayot tasdiqlaydi

«Sirxak»ning ko'pgina a'zolari kabi Sonxo ham dinga tanqidiy nazar bilan qaragan. Uning fikricha Budda kulti, konfutsiyachilikdagi Osmon va katoliklar Xudosi – bularning barchasi o'sha yagona bir illyuziyaga asoslangan.

Barcha odamlarni Li Ik uch turga ajratgan: «oliy aqlga ega» bo'lgan oz miqdordagi odamlar, o'zgarmaydigan «o'rta me'yor-dagilar» va ko'pchilikni tashkil etuvchi, sifati va fe'li azaldan belgilanmagan, faqat tarbiya jarayonida shakllanadigan odamlar turi.

«Sirxak»ning boshqa vakillari singari Li Ik ham o'z davri jamiyatini tanqid qiluvchilar va islohotchilar qatoriga kirgan. Mamlakatdagi qashshoqlik holatining asosida Li Ikning fikricha «oltita yomonlik» yotadi: 1) krepostnoy qulchiligi; 2) tabaqachilik tizimi: dvoryanlar, oddiy odamlar, mahkumlar farzandlari va qullar orasidagi qonunlashtirilgan farq; 3) «Kvago» imtihoni asosida davlat xizmatiga qobiliyatlilar emas, balki oliy tabaqa va boylarning qabul qilinishi tizimi; 4) sehrgarlik va xurofot; qimmatbaxo buyumlari tayyorlovchi hunarmandlarni qo'llab quvvatlash; 5) monaxlarning tekinox'rligi; 6) mehnatga oz miqdorda pul to'lash va dangasalik. Islohotlar haqida so'z yuritganda Li Ik qisman kiritiladigan o'zgartishlar emas umuman qonunni o'zini o'zgartirish haqida shunday deydi: «Agar qonun eskirib qolgan bo'lsa, u zarar keltiradi, agar zarar keltirayotgan bo'lsa, uni butunlay o'zgartirish lozim va bu to'g'ri yo'ldir» [37:231dan iqtibos].

Yer islohoti masalasida Li Ik Lyu Xen Von g'oyalari ketidan boradi va yer dehqonlarga teng taqsim qilinib berilishi lozim deb hisoblaydi. «Agar davlat boshqaruvi, – deb yozadi u – yerlarni

taqsimlab berishga asoslangan bo'lmasa qashshoqlikdan boshqa hech narsa bo'lmaydi. Agar mamlakat boyligini teng taqsimlash amalga oshirilmasa, xuquq masalasida kuchlilar va kuchsizlar bo'lsa davlatni qanday boshqarish mumkin?» [8:374dan iqtibos] Li Ik loyihasiga ko'ra har bir dehqon oilasiga tegishli yer miqdorini aniqlash, uni sotish va sotib olish mumkin emasligini qonunlashtirib qo'yish lozim. Yerni faqat u miqdordan ortiqcha bo'lganidagina sotish mumkin.

Tabaqalarga bo'linish haqida gapirib Li Ik yozadi: «Davlatda insonning qobiliyati qadrlanmas ekan, unda iqtidorlilar butunlay chetga surib qo'yilgan bo'ladi. Oliy tabaqani hurmat qilish, hamda odamlarni tabaqasiga ko'ra ajratish oddiy va o'rta hol odamlarni yuzinchi avlodida ham davlat mansablariga yaqin yo'nalishiga yo'l qo'ymaydi... Krepostnoylar qonuni shunchalik qattiqki, ularning farzandi oliy nasablar farzandi yonida hattoki yonma-yon turishga ham haqqi yo'q. [o'sha yerda 375].»

**«Pukxak» yo'nalishi** «Pukxak» («Shimoldan ilm») yo'nalishi sirxaklar ta'sirida shallangan. Ba'zan uni «sirxak»ning bir shoxobchasi sifatida ham talqin etadilar. «Pukxak» guruhining yirik namoyondalari sifatida Xon De Yen (1731–1783), Pak Chi Von (1737–1805), Pak Che Ga (1750–1805) va Chon Yak Den (1762–1836)larning nomini tilga oladilar.

Yangi yo'nalish asoschisi bo'lgan Xon De Yen (Tamxon) kelib chiqishi jihatdan oliy yanban tabaqasi oilasiga mansub edi. Yoshligida u na faqat koreys olimlarning qarashlari bilan balki, Ovrupo va Xitoy olimlarining yutuqlari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan.

O'sha davr vatanparvarlik tuyg'ularini izhor etib Xon De Yen koreys neokonfutsiyachiligiga an'anaviy ravishda xos bo'lgan Xitoy oldida sajda qilishga qarshi chiqqan. U shunday deb yozgan edi: «agar samodan turib Xitoyga va varvarlar mamlakatlariga qaralsa, markaz qaerda-yu chekka qaerdaligini ajratish qiyin. Agar Xitoy tomonidan qaralsa sharq varvarlari chekkada ko'rinadi. Agar sharq varvarlari orasida bo'linsa, unda Xitoy uzoq chekkada ko'rinadi. Chunki Konfusiy xitoylik bo'lgan, shu bois o'z mamlakati haqida balandparvoz gaplarni aytgan, agar u boshqa mamlakat vakili bo'lganida edi, unda u o'zining mamlakatiga xuddi shunday yuqori ba'ho berilgan «Chunshu» asarini yaratgan bo'lar edi.» [8:377 dan iqtibos].

Olim odamlarga, hattoki davlatga ham hech qanday foydasi bo'lmagan konfutsiyachilik borasidagi sholastik bahslarga keskin qarshi chiqqan. Shunday deb yozadi: «Axir ularning barcha hayotiy energiyasi yuz tomlab turli asarlarni yozishga sarf bo'ladi. Bu axir nafaqat fanning rivojlanishiga yordam bermaydi, balki qog'ozning narxini oshiradi, o'quvchilarning ko'z o'ngida bir bo'shliqni hosil qiladi. Hozirgi olimlar ongining bu kasalligini esa davolash qiyin» [24:99 dan iqtibos].

Haqiqiy fan aniq bilimlar asosida shakllanishi lozim. Xon De Yen o'z davri Koreyaning yetuk matematik va astronom olimlaridan bo'lgan. O'z asarlarida yerning dumaloq shaklda ekanligini va uning o'z o'qi atrofida aylanishini, borliqning abadiy va cheskiizligini, quyosh va oy tutilishlarining sababini, yer qimirlashi, fasllar almashinishi, atmosfera hodisalarini isbotlab beradi. Xon De Yenning tabiiy ilmiy qarashlari uning «Amaliy matematika», «Iysan tog'idagi suhbatlar» nomli asarlarida o'z aksini topgan.

Olimning falsafiy qarashlari «Inson hayotini tashkil etishda tabiat sharoitlari» va «Konfutsiyachilik qonuniyatlari haqida risola» nomli asarlarda aks ettirilgan.

Tamxonning aytishicha borliqning boshi ham oxiri ham yo'q, uning beqiyos kengliklari moddiy *ki* bilan to'ldirilgan. Mavjud barcha narsalar, inson va uning ruhi ham, *kning* birlashishi va tarqalishi asosida sodir bo'ladi. Xon De Yen uchun substansiya bo'lgan *ki* va narsa bo'lgan *ki* mavjuddir. «Agar «*ki*»ning mohiyati haqida gapirilsa, - deb yozadi faylasuf, - unda yorug'lik va bo'shliq, sof va xira bo'lish holatlari mavjud emas. Yuqoriga ko'tarilish, pastga yo'nalish kabi cheksiz va tez harakatlarda va urilishlarda «*ki*» turli shakllarga kirib boradi – og'ir va quyuk holatlari cho'kadi, yengil va yonuvchan holati cho'g' va kulga aylanadi. Aniq va sof «*ki*»dan inson yaraladi, xirasidan buyumlar paydo bo'ladi, eng aniq, sof va nozik, shunchalik aniq, sof va nozikki, hattoki ko'rib bo'lmaydigan «*ki*»dan inson ruhi (aqli) yaraladi» [37:239dan iqtibos].

*Ki* va *li* dualizmini himoya qiluvchilardan farqli ravishda Xon De Yen *li* *kning* tarkibida faoliyat ko'rsatadi deydi.. *Li*, tovush, rang, hid va ta'mdan mahrumligi sababli ta'sir ko'rsatish va namoyon bo'lish xususiyatiga ega emas, demak, borliqning asosi ham bo'la



olmaydi. *Li* k'iga ergashadi: agar *ki* yaxshi bo'lsa, *li* ham yaxshi, agar *ki* yovuz bo'lsa, unda *li* ham yovuz.

Bilish nazariyasida Xon De Yen bashoratchilik (geomantika) tizimiga, xurofotlarga, abadiylik va ruhning osmonga chiqib ketishi haqidagi diniy to'qimalarni ochib tashlaydi. Faylasuf aqlning tabiatning eng murakkab sirlarini anglay olish qudratiga ishonadi. «Hattoki osmonning o'zi, - deb yozadi u, - ba'zan insoniyat aql zakovati oldida tiz cho'kadi» [26:110dan iqtibos].

Tamxon mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tanqid ostiga oldi va o'zining uni isloh qiluvchi loyihasini taklif etdi. O'zidan oldingilarga o'xshab, Xon De Yen ham yerni teng taqsimlash taklifini kiritadi. Uning fikricha, har dehqon oilasi taxminan 4 ga yerga ega bo'lishi lozim; egasi vafotidan keyin bu yer uch yildan keyin boshqa xo'jayinga o'tishi lozim. Yer uchun olinadigan boj olingan xosilning o'ndan bir bo'lagidan oshmasligi darkor.

Mamlakatdagi iqtisodiy turg'unlikning sababini faylasuf dvoryanlar orasida mehnat qadrining juda pastligida deb biladi. U barcha uchun bir xilda mehnat javobgarligini o'rnatishni prinsipi - «barcha aholi mehnat qilishi shart» va «mehnat qilmaydigan dangasalar, ular qaysi tabaqa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, jazo olishi lozim» - deb talab qiladi. «Mehnat qilmasdan yeyayotganlarni butun dunyo oldida jazolash va sharmanda qilish uchun, - deb yozadi faylasuf, - qattiqqo'l qonunlar kerak. Kimda kim qobiliyat va bilimiga ega bo'lsa, u hattoki dehqon yoki savdogar farzandi bo'lsa ham, unga davlat boshqaruvi ishlariga yo'l bo'lishi kerak, kimda kim qobiliyatga ega bo'lmasa va bilim olishga iqtidori bo'lmasa eng past ishlarni bajarishi lozim, agar u bosh vazirning o'g'li bo'lsa ham» [37:244dan iqtibos]. Shunga ko'ra Xo De Yen ta'lim tizimini barcha iqtidorli bolalarga barobar qilishni va davlat mansablariga qaysi tabaqa vakili ekanligiga emas, balki qobiliyati va bilimiga qarab tanlash lozim degan fikrni bildiradi.

«Shimoldan ilm» guruhining yana bir yirik vakili o'zidan keyin adabiy hamda falsafa, astronomiya, geografiya, tarix, harbiy ta'lim, iqtisod va musiqaga oid bo'lgan ko'pgina asarlar qoldirgan Pak Chi Von (Yenam, 1737-1805)dir. Boshqa «pukxakist»lar singari Pak Chi Von foyda keltirishi aniq bo'lgan ilm-fan tomonida turib chjusianlikning sholastikasini tanqid ostiga oladi. U shunday deb yozadi: «Hayotdan ajralgan, besamar aqlilikni ilm-fan deb bo'lmaydi. Ilm-fan foyda

keltirganidagina u kerakli cho'qqida tura oladi» [37:249dan iqtibos]. U xorijiy mamlakatlarning ilm-fan va texnika borasidagi yutuqlarini o'rganish va amalda qo'llashni, yangilik hatto «varvar»larda bo'lsa ham o'rganish lozim degan taklifni kiritadi.

Pak Chi Von konfusiychilarning ikkiyuzlamachilik xususiyatini ham tanqid ostiga oladi. «Yo'lbars hayqirig'i» novellasida u o'z yaxshi ishlari bilan hurmatga sazovor bo'lgan konfusiychi-olimning xuddi unga o'xshagan o'z aql zakovati bilan hurmatga sazovor besh o'g'ilni besh otadan dunyoga keltirgan konfutsiyachi ayol bilan yashirin uchrashuvlarini tasvirlaydi. «Hurmatga sazovor bo'lgan» konfusiychining «donishmand» ayol uyidan qochish sahnasiga guvoh bo'lgan yo'lbars uni shunday ta'riflaydi: «Aytishlaricha hamma ilmlilar yolg'onchi emishlar. Bu juda to'g'ri ekan... Sening chaqmoqdek baland ovozing, sening safsatang – hammasi odamlar orasidagi munosabatning besh usuliga borib taqaladi, o'zingga yordamda bu munosabatlarning uchtasiga murojaat etasan, biroq shaharlarda odamlar kesilgan burun,, tovonsiz, yuzida tamg'asi bilan yurishibdi – bu o'sha sen aytgan qoidalarga va uslublarga rioya qilmaganlar. Jazo qurollari bir on ham bo'sh turmaydi, sizlar esa bu odamlarni o'zgartirishga harakat ham qilmaysizlar. Yo'lbarslarda bunday jazo hech qachon bo'lmagan. Bu nuqtai nazardan yo'lbarslar qonuni sizlarnikiga qaraganda insonparvarroq emasmi?» [23:106-107 dan iqtibos].

Pak Chi Von chjusianlarning tarixni ideallashtirishlariga qarshi chiqadi. Qadimgi davr donishmandlarining asarlari o'zgarib borayotgan davr qo'yayotgan barcha savollarga javob bera olmaydi. Yangi davr yangi qarashlarni talab qiladi.

Yenamning aytishicha, butun borliq yagonadir va uning kelib chiqish manbai ham yagonadir. Borliqdagi barcha tanachalar va tabiiy hodisalarning barchasi juda mayda changlardan yaralgan. Buyum va hodisalarning bu kosmik changdan paydo bo'lishi shunday sodir bo'lgan: «To'planib qolgan chang yerga aylangan; yoyilib ketgani - qumga; qotib qolgani - toshga; namlangani – suvga; qizib ketgan chang olovga; pishib ketgani – metalga; tirik qolgan chang daraxtga; agar chang harakatlansa shamolga, agar isitilsa u birlashib chuvalchangga o'xshash tirik jonzotga aylangan. Biz esa o'sha tirik jonzotlardan birimiz» [37:251dan iqtibos].

Buyumlarning moddiy asosi – gil hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi. Har bir narsa «chil»ning shakli va doimiy sifatining birligidir. Agar narsaning shakli buzilsa ham «chil» avvalgidek o‘zgarmay qoladi. Daraxtni kesish mumkin, lekin uning «chil»i saqlanib qoladi, yerni maydalab tashlash mumkin, lekin uning ham «chil»i yo‘qolmaydi. Narsalarning faqat shakli o‘zgarishi mumkin, lekin asosi emas.

Hamma narsa doimiy o‘zgarishda: «Dunyo juda qadimiy, lekin u doimiy o‘zgarishda. Quyosh bilan Oy ham juda qadimiyligiga qaramasdan ular har kuni yangidir» [26:111dan iqtibos].

Yenam ta’kidlashicha, bilish tashqi olamning tuyg‘ularga ta’siri natijasida amalga oshadi. Faylasuf bu jarayonni qo‘ng‘iroqqa urganda chiqadigan tovush bilan qiyoslaydi. Pak Chi Von mistikani, fol ochishni, buddizm va katolisizmni tanqid qiladi, dunyoning yaralishi va osmondagi jannat hayoti haqidagi bibliyada yozilgan rivoyatni «buddizm qoldiqlarining qoldig‘i» deb baholaydi.

Pak Chi Vonning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasidagi loyihasi yerdan foydalanish, qishloq xo‘jaligi, quruqlik va suv transporti, moliya va harbiy tizim hamda boshqa masalalarni o‘z ichiga oladi.

Yer masalasida Pak Chi Von uni barchaga teng taqsimlash tarafdori bo‘lib, qadimda yer teng taqsimlangani va «oliy tabaqalarga ko‘proq va oddiy halqqa kamroq» degan qoidalar bo‘lmaganini ta’kidlab o‘tadi. Yer har doim ham hukmronlar va zodagonlar qo‘lida bo‘lavermagan. «Monarx, - deb yozadi Pak Chi Von, - davlatda bor yerning hammasiga xo‘jayin, agar bu holatning kelib chiqish asosiga qarasa, unda shunday savol tug‘iladi, u qanday qilib va kimning shaxsiy mulkini o‘z qo‘liga olib olgan» [24:126dan iqtibos]. Olim yerdan «chegarali» foydalanish loyihasini taklif etadi, unga ko‘ra har bir inson o‘z ulushini olishi mumkin, lekin uning chegarasi bo‘lishi lozim. Bu bilan bironing yeriga egalik qilish tugatiladi, chunki hech kim qonunda belgilanganidan ortiq yerga ega bo‘la olmaydi.

Pak Chi Von tabaqalarga ajratish va ulardagi axloqiy qoidalar tizimini qoralab chiqadi. U qonuniy va noqonuniy tug‘ilgan farzandlarning huquqini tenglashtirishni, «oliylar» va «pastlar» degan ajratishlarni yo‘q qilishni talab qiladi. «Oliy» dvoryanlarni u «talon-tarojchilar», ularning axloqini esa - «o‘g‘rilar axloqi» deb

baholaydi, haqiqiy axloq «boylarga va oliylarga» emas, ko'proq «kambag'al va past tabaqalarga» xosdir deydi.

Pak Chi Vonning g'oyalari uning shogirdi Pak Che Ga (1750–1805) rivojlantirdi. Noqonuniy tug'ilgan farzand bo'lishiga qaramasdan Pak Che Ga jamiyatda obro' qozona oldi. U shox saroyida kitob xazinasi boshlig'i mansabini egallagan, Xitoy bilan diplomatik aloqalar guruhida ishlagan. Xitoy va boshqa mamlakatlarning turli sohalaridagi yutuqlari bilan tanishib, Pak Che Ga xorij yutuqlari va tajribalarini o'zlashtirish tarafdori bo'ladi. «Agar Koreya, - deb yozadi olim, - boshqa mamlakatlar bilan savdo va madaniy aloqalar o'rnatganida edi, bizning davlat ham boyib ketgan bo'lar edi va kerakli tovarlarni qo'lga kiritgan bo'lar edi... Xorij mamlakatlar bilan aloqa qilish ularning texnikasini, urf-odatlarini o'rganishga imkon yaratadi va bu orqali halqimiz ilmini oshira olgan bo'lar edik» [24:153 dan iqtibos]. Bu borada u ichki va tashqi savdoni yo'lga qo'yishga imkon beruvchi dengiz savdo yo'lini rivojlantirishni taklif etadi. U shunday deb yozadi: «yuzta arava bitta kemandi o'rni bosa olmaydi, shu bois savdo uchun eng qulay yo'l dengiz yo'lidir» [8:381 dan iqtibos]. Olim shu bilan bir qatorda tabaqalar tizimini, zodagonlarning bekorchiligini, davlat mansablariga o'tkaziladigan imtihonlarni, geomantiya, folbinlik va bid'atlarni qoralab chiqadi.

**Chon Yak Yenning** «Pukxak» maktabining g'oya va prinsiplariga yakun yasagan uning eng oxirgi vakili ijtimoiy-falsafiy qarashlari XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan buyuk faylasuf Chon Yak Den (Dasan, 1762–1836)dir. Diniy-falsafiy, tarixiy va adabiy asarlar bilan Dasan yoshligidanoq tanisha boshlaydi. 16 yoshidayoq u Li Ikning asosiy asarlarining barchasini o'rganib chiqadi. Keyinchalik u katoliklarga va g'arb mamlakatlari ilm-fan yutuqlari bilan tanishadi. U tabiiy va texnik fanlarni: matematika, astronomiya, mexanika, optika, fiziologiya, medisina, geografiya, fortifikatsiya, qurol-yarog' va boshqalarni chuqur o'rganadi. Chon Yak Yen o'zidan keyin taxminan 500 tom dan ortiq falsafaga, astronomiyaga, geografiyaga, tarixga, xuquqqa, siyosatga, iqtisodga, harbiy ta'limga, adabiyotshunoslikka va tilshunoslikka oid asarlar qoldirgan.

Faylasuf chjusianlikni tanqid qiladi. Saroyida xizmat qiluvchi shoxga yaqin bo'lgan konfusiychilar orasida uning dushmanlari ko'p

edi. Natijada, olim g'arb ilmini o'rganganlikda ayblanib o'z qarashlari uchun ko'p yillarni surgunda o'tkazgan.

Chon Yak Yen Ontologiyasi moddiyistik qarashlar prinsipiga asoslangan. O'rab turgan olam yagona mavjud dunyodir. Dunyoning asosida azaldan mavjud bulgan «Buyuk Chegara», hali differentsiyalanmagan bo'shliqdan iborat materiya yotadi. Keyinchalik u bo'linadi va shaklga kira boshlaydi. Kosmogenezik jarayon miqdor va sifat bilan belgilangan. Miqdor sifatida u 4 ga ajralish asosida tashkil topadi: birni ikkiga, ikkining to'rtga, to'rtning sakkizga va hokazo. Sifatda u 4 bosqichga bo'linadi: txeek (*ki* hali paydo bo'lmagan), txecho (*k*ning paydo bo'lishi), txei (shakllarning paydo bo'lishi) va txeo (borliqning vujudga kelishi).

Kosmogenez birma bir holda shunday ro'y beradi. Buyuk Chegara (bitta narsa) bo'linib osmon va yerni tashkil etadi (ikkita narsa). Osmon va Yer qarama-qarshi sifatlarga va joylashishga ega. Osmon yuqorida joylashgan. U yengil va tiniq; yer esa pastda joylashgan va u og'ir hamda xira. Osmon va yer ikkitaga bo'linib osmon, yer, suv va olovga aylanadi. Ular bo'linib sakkiz narsaga: osmon, yer, suv, olov, chaqmoq, shamol, tog'lar va suv xavzalariga aylanadi. Osmon va olovning o'zaro ta'siri chaqmoq va shamolni bunyodga keltiradi. Yer va suvning o'zaro ta'siri esa tog' va suv havzalarining bunyodga kelishiga olib keladi. Keyinchalik Quyosh, Oy, osmon jismlari, o'simliklar va hayvonlar vujudga keladi.

Noorganik tabiat, o'simliklar, hayvonlar va inson har xil bo'lsa-da, ular *kidan* yasalgani uchun bir xildir. *Liga* kelsak u barcha narsalarda mavjud, lekin «barcha narsalar»ni ko'ruvchi «ruh» mavjudligi haqida ham gapirgan.

Barcha mavjudot o'zaro teng bo'lgan qarama-qarshiliklar birligidan iborat deb bilgan. Dunyoda o'zgarmas narsa yo'q, ularning barchasi o'zgarish qonuniga bo'ysunadi. Borliq paydo bo'lishining va uning o'zgaruvchanligining yagona sababi ikki kuchning – *im* va *yam*ning o'zaro ta'siridir.

Gnoseologiyada Dasan sub'ektning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi prinsipiga asoslanadi. Bunda tashqi dunyoni anglab beruvchi insonning sezish organlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularsiz tafakkur qilish mumkinligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. «Inson ruhi, - deb yozadi Dasan, - hech qanday shaklga ega emas; u faqat quloq,

ko'z va burunlarning sezish qobiliyati tufayligina bilish xususiyatiga ega» [37:275 dan iqtibos]. Bilish esa faol bo'lishi va amaliyotga asoslangan bo'lishi lozim. Faylasuf narsalarni o'zida aks ettiradigan oynani ham misol keltiradi, biroq u bizning bilimimizni oshira olmaydi - deydi.

Antropologiyada Chon Yak Yen insonning azaliy mavjud tabiati haqidagi qarashlarni tanqid ostiga oladi.

U inson xususiyatlarining tug'ma ekanligiga qarshi chiqadi. U odamlarni xuddi tabiat qonunidek tabaqalarga bo'lishga («oliylar», «o'rta hollar» va «past tabaqalar») qarshi chiqadi. Shunday bo'lsa-da, uning o'zi ham odamlarni «donishmandlar» va «nodon»larga ajratadi va bu sifatlarni esa insonning o'zi yaratadi deb hisoblagan.

«Pukxak»ning boshqa barcha vakillari qatori Dasan ham dinni, mistikani, bid'atlarni, fiziognomikani, geomantiyani va ota bobolarga sig'inishni tanqid ostiga oladi. «Qanday qilib mozorda yotgan suyaklar avlodlarga yaxshilik olib kelishi mumkin, - degan savolni qo'yadi Chon Yak Yen, - hattoki ular, deylik, yerning eng yaxshi parlanishidan o'tgan bo'lsalar ham, agar avlodlar haqiqatan ham o'z kamchiliklariga, hayot va o'limlariga o'zlari hukmron bo'la olmasalar ham?» [37:279dan iqtibos]. Halqning qashshoqligining sababi bid'atlarga ishonishdadir. Agar qashshoqlik bo'lmasa o'g'irlik bo'lmaydi, qo'rquv yo'qoladi, o'z-o'zidan bid'atlar ham yo'qoladi. Buddizm va xristianlik, deydi Chon Dasan, bilimsizlikda bir xildir.

Faylasuf ma'naviy va huquqiy regulyatorlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi va birinchilikni ma'naviyatga beradi. Qadimni ideallashtirib, qadimda hukmronlar ma'naviyatning umumiy qoidalari - «odob» i «marosimlar» - asosida boshqarganlar deydi u. Keyinchalik odamlar ularga rioya qilmay qo'ydilar va ularning o'rmini qonun egalladi. Biroq qonunga doim tajovuz, kuch va zo'ravonlik hamrohlik qiladi. Ularga asoslanganda esa «yaxshi himmatli boshqaruvni» ni amalga oshirish qiyindir. Yana ma'naviyatga asoslangan boshqaruvga qaytish lozim deb hisoblaydi.

Konfusiychilikdagi imperatorning Osmon farzandi, monarxiya asosida boshqarish esa Osmon buyrug'i degan qarashlarga Chon Yak Yen monarxiya institutining tabiiy-tarixiy talqiniga asoslangan holda javob beradi. Hech qanday hukmdor bo'lmagan davrlar ham bo'lgan. Odamlar orasida agar kelishmovchilik tug'lsa ular oqsoqollarga murojaat etishgan. Ular orasidagi donishmandrog'i qishloq oqsoqli hisoblangan. Agar kelishmovchilik qishloqlar orasida bo'lsa odamlar

qishloq oqsoqollariga murojaat etishgan va ular orasida eng donishmandi qishloqlararo oqsoqol etib tayinlangan. Bu donishmandlar tanlagan shaxslar esa imperatorni saylagan. Dasan bundan shunday xulosa qiladiki, «hukmdor halq uchun xizmat qilishi lozim». Agar hukmdor uni saylagan halqqa xizmat qilmas ekan, halq uni olib tashlashga haqlidir.

Bundan kelib chiqqan holda Chon Yak Yen shox taxtining avloddan avlodga o'tish tizimini noqonuniy va qadimiy an'analarga xilof deb inkor etadi. «Qadimda, - deb yozadi Dasan, - shox halq tomonidan saylanar va shox chiqargan barcha qonunlar uning manfaatlariga yo'lida xizmat qilishi lozim edi. Lekin ma'lum bir vaqtdan boshlab kimdir hukumatni o'z qo'lga olib imperator bo'lib oldi va o'zining o'g'illari, aka-ukalarini knyazlarga aylantirdi, ular ham o'z navbatida o'z yaqinlarini turli mansablarga tayinladilar va shu tarzda ketaverdi... Shu davrdan boshlab imperator halq manfaatini nazarga olmaydigan, faqat o'zining manfaatini ko'zlaydigan qonunlar chiqara boshladi... Qonunlar halqqa emas, imperatorga xizmat qila boshladi» [24:149dan iqtibos].

Chon Yak Yen o'z davrining jamiyatini qoralaydi. Turli mansabdagi amaldorlarni «oddiy halqning go'shtini yeyuvchi» o'g'rilar, tuman hokimlarini esa – katta qaroqchilar deb ataydi. U tabaqachilik tizimini yo'q qilish, davlat mansablariga odamning bilimi va qobiliyatiga qarab tayinlanishi, dvoryanlar unvoni va imtiyozlarining avloddan avlodga o'tish tizimini soddalashtirish tarafdori bo'lib chiqadi. Natijada tenglik bo'lmagani uchun, deydi olim, 10 tadan 9 kishi mamlakat boshqaruv ishlariga tayinlanmagan – vrachlar, o'qituvchilar, tarjimonlar, oddiy odamlar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Tug'ilish hududiga qarab odam ajratish ham uning noroziligini uyg'otadi: «Qobiliyatli odamni tug'ilgan joyi nobopligi uchun ham chetlatish mumkinmi, axir?» [9:315dan iqtibos]

Yer masalasida Chon Yak Yen shunday shiorni oldinga suradi: yerni yerga ishlov beradigan oladi. Agar undan avvalgilar yerni jamiyatning barcha a'zolariga, hattoki pomemiklarga ham, teng taqsimlab berish usulini taklif etgan bo'lsalar, Dasan esa pomeshiklarni yer olishga haqli emas deb hisoblaydi. Yerga jamiyatning faqat ikki vakili davlat va dehqon ega bo'lishi mumkin. Bunda dehqonlar yerni individual yoki oila bilan olib ishlov bermaydilar balki, qishloq jamoasi sifatida (30ta oila) oladilar. Dehqonlar bilan hisob-kitob esa ishlagan kuni hisobidan olib boriladi.

7 Bob. XIX asr va XX asr birinchi yarmida  
Chosonda Koreys falsafasi

**Feodalizm inqirozi va kapitalistik munosabatlarning shakllanishi**

XIX asrning 70-yillarigacha tashqaridan uzilgan holda siyosat olib borgan Koreya, qishloq xo'jalik va hunarmandchilikka asoslangan agrar siyosatga tayangan. Manufaktura va mashinada ishlab chiqarish umuman bo'lmagan. Aholining asosiy qismi dehqonlar qattiq ekspluatatsiya va to'lovlarga ko'milgan holda juda qashshoq yashaganlar.

10% gina dehqonlar o'zining xo'jaligiga ega edi. Qolganlar pomevniklardan og'ir shartlarga ijaraga yer olib qiyin ahvolda kun ko'rar edilar. Dehqonlarni qashshoqlikdan chiqarmaydigan og'ir to'lovlar (yer solig'i, hovli solig'i, viloyatlarga beriladigan soliq, yo'lda yo'qolgan donning o'rmini to'ldirish uchun to'lanadigan don solig'i) va yana bir qancha qarzlari. XIX asrning birinchi yarmida Koreyada jami 40dan ortiq to'lov turlari mavjud edi [9:300]. Ijara, boj va boshqa to'lovlarni to'lagandan keyin dehqonda yiqqan xosilning sakkizdan birigina qolar edi.

XIX asrning birinchi yarmi davomida Koreya turli ofatlarni: tabiiy ofat, xosilsizlik, ochlik, o'lat kabilarni boshidan o'tkazdi. Ochlik va qashshoqlik dehqonlarni ijaraga olgan yerlarini tashlab tog'li hududlarga qochib ketishga majbur qildi. Tog' yon bag'irlarida omonat hujralar qurib ular tabiatning bir chekkasida jon saqlab yurdilar. XIX asrning o'rtalariga kelib Koreyadagi mavjud yerlarning uchdan bir qismi tashlandiq holda yotardi. Ko'pgina dehqonlar daydi bo'lib ketgandilar. Qo'shni mamlakatlarga chiqib ketish holatlari ham ommaviy tus ola boshladi.

Asrlar davomida koreys jamiyati to'rt tabaqaga (qatlamga) bo'linar edi. Birinchisiga dvoryanlar – hukumat va viloyat hokimlari, harbiy ofiserlar («yanbanlar») yoki oliy toifalar, ikkinchisiga - vrachlar, rassomlar, tarjimonlar, astronomlar, astrologlar, mayda amaldorlar («chuynin») yoki yarim oliylar, uchinchisiga – dehqonlar, mayda savdogarlar, hunarmandlar, baliqchilar («yan min») yoki oliymaslar va to'rtinchisiga – qullar, hamda ularga teng sanaluvchi qassoblar, etikdo'zlar, raqqosalar va boshqalar («chen min») yoki qullar). Bu tabaqalarga bo'linish ma'lum bir tabaqa vakili bo'lgan



koreysni butun umr hayot tarzini belgilar edi. Oliy bo'lmaganlar o'z ota-bobolariga, yanbanlar ham o'z ota-bobolariga sig'inar edilar. Oddiy halq yanbanlar uchun ko'z yoshi to'ka olmas edi, chunki bu yanbanni haqoratlash bilan barobar hisoblangan. Oddiy koreys hech qanday xuquqqa ega bo'lmagan. Yanban xohlagan oddiy odamni o'zi uchun ishlashga, uning moli va ish qurollarini ham ishlatishga majbur qila olardi. Yanbanni uyi yonidan o'tayotgan oddiy koreys tez o'tib ketishi lozim bo'lgan.

XVII va XVIII asrlar davomida ko'pgina koreys ziyolilari iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish lozimligiga o'z e'tiborlarini qaratganlar, jumladan, tabaqalarga bo'linishga barham berish, ilmning ahamiyatini oshirish, halq boshidagi og'ir to'lovlarni kamaytirish va boshqalar. Qandaydir tub o'zgarishlarning yo'qligi shunga olib keldiki, 1812 yildan keyin XIX asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatda dehqonlar qo'zg'olonlari bo'la boshladi. Siyqasi chiqib ketgan tuzumning yemirilishiga sabab bo'lgan yana bir fakt mamlakatning izolyatsiyadan chiqishi va chet mamlakatlar bilan alokaning urnatilishi natijasida kapitalistik munosabatlarning shakllanishi bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmida turli mamlakatlar uchun Koreya tovar sotish bozori va arzon xom ashyo manbaining ob'ektiga aylana bordi. Britaniya, Rossiya, Fransiya, Amerika va Yaponiya kemalari Koreyaning suv hududlarida paydo bo'la boshladi.

1876 yili, koreyslar tomonidan Yapon kemalarining o'qqa tutilishidan foydalanib yapon flotilyasi Kanxvadoga langar tashlaydi, aynan shu yerda Yaponiyaga qulay shartlarga asoslangan u yapon kemalari va savdosining koreys portlariga kiritilishi haqidagi shartnomaga imzo chekilgan edi.[20:44-46]. Koreyaga bo'lgan qadimgi ta'siridan mahrum bo'lishdan qo'rqqan Xitoy Yaponiyaga qarshi o'z harakatini boshlaydi. Uning yordamida 1882 yilda Koreya AQSh bilan keyin esa Angliya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, Avstriya, Belgiya va Daniya bilan shartnomalar tuzadi. Koreyaning iqtisodiy jihatdan kam rivojlanganligi va koreys bozorining himoyalannaganligi natijasida Koreyaga chet el kapitali va tovarlarining kirib kelishi mavjud xo'jalikni butunlay sindirdi, dehqon va hunarmandlar butunlay inqirozga yuz tutdilar, mamlakatdan qishloq xo'jalik maxsulotlari bo'lmish teri, qimmatbaho metallar va mineral xom ashyolarning olib chiqib ketilishiga sabab bo'ldi.

Iqtisodiy tanglik, 1893 yildagi hosilsizlik natijasidagi ommaviy ochlik 1894 yilda tonxak harakati tarafdorlari boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloniga olib keldi. Ularning talablari: halqni qashshoqlikdan saqlab qolish, qat'iy davlat boshqaruvini joriy qilish, «sotqin va qahri qattiq» boshliqlarni o'limga mahkum etish, mamlakatni chet el bosqinchilaridan ozod etishdan iborat bo'ldi. Koreya hukumatining iltimosiga ko'ra mamlakatga xitoy harbiylari olib kirildi, ularga kesma-kesarlik qilib Yaponiya ham o'z harbiy kuchlarini bu yerga olib kirdi. Natijada yapon-xitoy urushi boshlanib ketdi. Koreyaga o'z ta'sirini kuchaytirishni asosiy maqsad qilib olgan bu urushda Yaponiya yutib chiqdi va u mamlakatni o'zining yarim mustamlakasiga aylantiradi. Tonxak harakati esa hukumat va yapon harbiy kuchlari tomonidan bostirildi. Koreyaning Yaponiya tomonidan mustamlaka qilinishiga qarshi chiqqan malika Min o'ldiriladi. Iqtisodiy talon-taroj va majburiy ravishda yaponlashtirish nafaqat dehqonlar orasida balki mustaqillik uchun yaponlarga qarshi kurashchilarga qo'shib ketgan dvoryanlar orasida ham ommaviy noroziliklarga olib keldi. 1910 yilda esa Yaponiya Koreyani butunlay bosib oldi va uning yapon general-gubernatorlik hokimiyati boshqaradigan mustamlaka mamlakatga aylantirdi.

Koreys «yoqpiqlik siyosatining» tugashi g'arb ilm-texnika yutuqlarining, nasroniylik va ijtimoiy-siyosiy nazariyalarning kirib kelganini anglatar edi. 70-80 yillarda koreyslardan bir necha guruhi Yaponiya va Xitoyga g'arbning davlat qurilishi, sanoat, ta'lim, harbiy va boshqa sohalarda erishgan yutuqlari bilan tanishish uchun yuborilgan edi.

1894 yilgi dehqonlar urushi, siyosiy va iqtisodiy inqiroz, tashqi ta'sirning tazyiqi kuchayishi koreys hukumatini islohotlar o'tkazishga majbur qildi. Shox saroyini hukumatdan alohida ajratish, byudjet tizimini yaratish, soliq tizimini o'rnatish, grajdanlik va jinoiy kodekslarni joriy etish, chet mamlakatda ta'lim olish kabi masalalarni o'zida mujassamlashtirgan dasturlar ishlab chiqildi. Yangi darsliklar nashr etila boshladi, chet tilini o'rgatuvchi kurslar faoliyat ko'rsata boshladi. Tanqid kuchi ostida hamda ijtimoiy keskinlikni yumshatish maqsadida 1893-1894 yilgi dehqonlar urushidan keyin nobi tizimi biroz soddalashtirildi, oddiy odamlarning haq-huquqlari esa yanbanlar bilan tenglashtirildi. Mansab egallash uchun o'tkaziladigan Chin-kvago imtihonlari ham eskirgan an'ana sifatida yo'q qilindi.

An'anaviy davlat va mafkura tizimining tanazzuli, chet el ta'siri, turli guruhlar orasidagi hokimiyat uchun kurashlar mamlakatda konservatorlar va islohotchilar partiyasining shakllanishiga olib keldi. Bu qarama-qarshiliklar falsafa va mafkura sohalarida konfuisianlik va ma'rifatparvarlikning o'zaro kurashi sifatida namoyon bo'ldi.

**Chjusianlik tanazzuli** XIX asrda ortodoks chjusianlikning faollashuvi kuzatildi. Bunday o'zgarish «churiron» maktabi doirasida kuzatilib «sirxak», «pukxak», «chugiron», «xan ta'limoti» maktablari moddiyistik qarashlarining yoyilishiga va Van Yan-min maktabining sub'ektiv-idealistik falsafasiga nisbatan o'ziga xos bir reaksiya sifatida namoyon bo'ldi. Bu barcha oqimlar, hamda XIX ikkinchi yarmida shakllangan katoliklik va tonxak sektasi «bid'at» deb e'lon qilingan edi. «Vijon chxoksa» («haqiqatni saqlash va bid'atni tugatish») nomli butun bir harakat paydo bo'ldi, va bunda «haqiqat» deganda ortodoks chjusianlik tushunildi. Bu harakatning asosiy vakillari Ki Chon Chin (1798–1876), Li Chin San (1818–1885), Chxve Ik Xyon, Lyu In Sok va boshqalar bo'ldilar. Shoxga murojaat qilganda «Vijon chxoksa» mafkurasi tarafdorlari shunday deb yozardilar: «Davlatning yagona to'g'ri mafkurasi Chju Sining ta'limoti deb tan oluvchilar va uning axloq qoidalarini bajaruvchilargina gullab yashnashi mumkin»: 24:187 dan iqtibos].

Ki Chon Chin ta'limotiga ko'ra, barcha mavjudlikning birinchi sababini ideal *li* tashkil etadi. Aynan *li* *kn*ing, besh unurning, barcha narsa va hodisalarning asosidir.

*Li* «Osmon»ga bo'ysungan holda barcha narsalarning paydo bo'lishi va hodisalar sodir bo'lishining sababini tashkil etadi. Bu dunyoda hamma narsa azaldan belgilangan. Ki Chon Chin shunday deb yozadi: «Hamma narsa Osmonning istagiga ko'ra bo'ladi. Hamma narsalarning shunday ekanligiga Osmonning xohishidan boshqa sabab yo'q» [37. 333dan iqtibos]. Shu bois *li*ga ergashish yaxshilik alomati, uni buzish yovuzlik alomatidir. Xuddi shu tarzda *li*ni anglash haqiqatni anglashdir.

Yangi sharoit ta'sirida mamlakatda ijtimoiy va mafkuraviy asoslarga ega bo'lgan turlicha iqtisodiy va siyosiy tamoyillar shakllandi.

Ortodoks chjusianlik vakillari «haqiqatni saqlab qolish» va «eskilikni tubdan yo'qotish» shiori ostida chiqdilar. Bu chiqishlar nafaqat koreyslarning moddiyistik qarashlari hamda Yan Van Min

qarashlari bilan balki xorijning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlari bilan bog'liq an'anaviy eski turdagi ta'limotlarni hamda Koreyani xorij uslubida qayta isloh qilish kabi rejalarni nazarda tutadi. Muhojirlarga qarshi va konfusiychilik tarafdori kayfiyatidagilarni hukumat qo'llab quvvatladi. Katolik missionerlar tomonidan Koreyaga olib kirilgan nasroniylik qattiq qarshilikka uchradi. Nasroniylikni umuman man qiluvchi qonun aslida 1786 yili qabul qilingan edi. XIX asrga kelib esa nasroniylik umumkoreya miqyosida ta'qib qilindi.

Chjusianlar uchun xorijda yagona namunaviy davlat bu Xitoy bo'lib qoldi. Uning oldida sajda qilish haqida ortodokslardan biri Chxve Ik Xyon aytgan edi: «Shimol! Bu yerda Osmon va Yer paydo bo'lgan, «im» va «yan»lar ham birinchi bo'lib bu yerda paydo bo'lgan. Shu bois, aynan shu yerda barcha buyuk, pok va komil «k»lar birlashishi yuz bergan, bu yer buyuk donishmandlar yeridir. Chxve Ik Xyon uchun Xitoy – taraqqiyot sinonimidir, boshqa halqlar esa –buzg'unchilardir.

An'anaviy tizimning radikal tarafdorlari chet elning har qanday ta'siriga qarshi chiqdilar. Jumladan, Li Xon Xo (1792–1868) g'arb tovarlariga baykot e'lon qilishni taklif etgan va bu bilan mamlakatni g'arblashtirishni oldini olish mumkin deb hisoblagan. Konfusiychilikning o'rtacha yo'l tutadiganlar qanoti vakillari, jumladan, Pek Nak Kvan, chet el sarmoyasini faqat mamlakat iqtisodi oyoqqa turib olganidan keyingina kiritish mumkinligi haqida fikr bildirganlar.

Yapon agressiyasi davrida ko'pgina konfusiychilar, «Vijon chxoksa» harakati ishtirokchilari vatanparvar shiorlar bilan chiqdilar va yaponlarga qarshi kurashga chaqirdilar. Bu kurashlarda ishtirok etish shakllari turlicha bo'lgan. Ayrimlari qarshilik va bo'ysinmaslik aksiyalari bilan chiqdilar.

Jumladan, koreys qirolchasi o'ldirilganidan so'ng yapon hokimiyati koreys hukumatini koreys milliy soch turmagini qilishni man qiluvchi dekret qabul qilishga majbur qilgan. Chxve Ik Xyon buni amalga oshirishdan bosh tortgan, natijada hibsga olinib yapon qamoqxonalari tashlangan va o'sha yerda olamdan o'tgan. Boshqalari, Yu Rin Sek kabilar, qarshilik ko'rsatish qurolli haraktida ishtirok etgan. Konfutsiyachilik nazariyotchilarining dehqonlar bilan birga partizanlik chiqishlari ularning ongini o'zgartirmay qolmadi.

Yu Rin Sek (1843–1917), faylasuf va «Haqqoniylar armiyasi» nomli partizanlar harakati rahbarlaridan biri, o'z qarashlarida konfutsiyachilik doktrinalariga shunchalik ko'p yangiliklar kiritadiki, endi uning ta'limotini tom ma'noda chjusianlik deb atash ham mumkin bo'lmay qoladi.

Konfutsiyachilikning bosh tushunchalaridan biri – axloqiylik to'liq ravishda qayta ko'rib chiqiladi. Axloqiylikni ichki komillikka yetkazuvchi mavhum bir tushunchalar tizimi sifatida inkor etadi. Axloqiylik uning uchun aniq bir amaliyot bo'lib, uni kezi kelsa «chet el pushkalari bir kun o'qталib qolinsa» dushmanga qarshi qo'yishga loyiq bo'lgan bir tushunchadir.

Ortodoks konfutsiyachilikdan farqli ravishda Yu Rin Sek oliy toifadagi (ideal) olim tushunchasini ham boshqacha tasavvur qiladi. Olim ham qishloq xo'jaligi, ham hunarmandchilik, ham savdo, ham harbiy ishlarda mutaxassis bo'lishi lozim. Harbiy ishga Yu Rin Sek alohida e'tibor qaratadi. U hatto jamiyatning an'anaviy ierarxiyasi qatlamiga harbiylar qatlamini ham kiritishni taklif etadi.

**Chxve Xan Gi** XIX asr koreys falsafasi tarixida nafaqat falsafasi ob'ektiv idealizmning rivojlanishi bilan balki moddiyistik qarashlarning ham rivojlanish bosqichi bo'ldi. Bu qarashlar faylasuf olim va ensiklopedist, o'zidan keyin falsafa, matematika, mantiq, astronomiya, geografiya, fizika va psixologiya sohalarida katta meros qoldirgan Chxve Xan Gi (1808–1873) qarashlarida o'z aksini topgan. Chxve Xan Gi ta'limoti g'arb ilm-fan yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan ta'limot bo'ldi.

Chxve Xan Gi ortodoks konfutsiyachilikka to'g'ridan to'g'ri qarshi chiqdi va yangi zamon yangicha qarashlarni talab qiladi degan fikrni bildirdi.

Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasi moddiyistik va tabiiy ilmiy tamoyillarga asoslanadi. «Umuman va asosan, - deb yozadi u, - tabiat va insonning paydo bo'lishi «*ki*» moddiyistik ibtidoning faoliyati natijasidir». [26:114 dan iqtibos].

Chxve Xan Gining bilish nazariyasida Van Yan-minning ichki sezgi yoki hissiyot (intuitivizm) tushunchasini hamda daoslarning sezgi organlariga bo'lgan ehtiyotkorsiz munosabatlarini tanqid ostiga oladi. Rasionalizmning bir tomonlamaligini tanqid qilish bilan bir qatorda Chxve Xan Gi bir tomonlama xarakterga ega bo'lgan

sensualizmni ham qabul qilmaydi, bunda eslash hamda ko'pchilikning amaliy tajribasisiz barcha eshitilgan va ko'rilgan narsalar har safar yangitdan tasavvur etilishi lozim bo'lar edi deb hisoblaydi.

Insonni faylasuf «o'ziga xos bir mashina» deb va uning sezgi organlarini esa ma'lum bir vazifani bajaruvchilar sifatida ta'riflaydi. Ruhning abadiyligi haqidagi ta'limotni faylasuf inkor etadi, o'limdan keyin ruhning abadiyligi haqidagi barcha fikrlarni isbotlab bo'lmaydigan «to'qimalar» deb hisoblaydi.

Chxve Xan Gi ma'rifatli absolyut monarxiya tarafdori bo'lib chiqadi. Mamlakat hayotida «yagona hokimiyatga bo'lgan hurmat» da namoyon bo'ladigan «tinchlik va osoyishtalik» eng muhim o'rinni egallaydi deb hisoblaydi. Mavjud holatda hukumatga bo'lgan hurmat va monarx atrofida birlashish monarxiyani ideallashtirish uchun chaqiriq emas, balki chet el ta'siri havfidan ozod bo'lishga yo'naltirilgan vatanparvarlarga chaqiriqdir.

**«Tonxak»** Ortodoksal chjusianlikka qarama-qarshi shakllangan **maktabi** boshqa bir yo'nalish Chxve Che U (1824–1865) asos solgan «tonxak» yoki «sharq ta'limoti» maktabi bo'ldi.

Chxve Che U falsafasining asosini panteizm tashkil etdi. Bir tomondan olam *im i yan* qudratiga ega bo'lgan chegaralangan *ki* dan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan esa tabiatning o'zi Yaratgan bilan chatishib ketgan, va bunda inson o'z mohiyatiga ko'ra Yaratganning o'zidir. «Inson Osmon (Yaratgan) bilan tengdir», - deydi faylasuf. Ruh va *ki* shunchalik bir-biri bilan chatishib ketganki, ular orasidagi chegara umuman yo'q bo'lib ketadi (chegarani sezib bo'lmaydi). Endi Chxve Che U moddiy ob'ektlarni (osmon, yer, inson tanasi) ruh deb, ruhiy jarayonlarni (ruhning harakati, nutq, kulgi) larni moddiy bo'lgan *ki* deb e'lon qiladi.

Insonni Yaratgan darajasiga, inson ongini esa ilohiy darajaga ko'tarish faylasufning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining asosi bo'ldi. Chxve Che U hokimiyatning har bir insonga o'ziga xos munosabat ko'rsatish, dehqonlarni qashshoqlikdan qutqarish va chinovniklar tomonidan o'z mansabini suiste'mol qilishga chek qo'yishni talab qiladi. U dunyoda hayot yo'q, shu bois odamlar bu dunyoda baxtli yashashga haqlidirlar, bu esa yerda osmoniy haqiqatni o'rnatish kerak demakdir. Quyida uning 1860 yilgi nutqida aytib o'tgan mulohazalaridan bir parcha: «Ey, olam azoblaridan qochayotgan omma! Men haqiqat yo'lini topdim. Noto'g'ri yo'llarda adashib yurmang. Ko'pchilik olamdan o'tib

ketdi, chunki avvalgi yo'llar noto'g'ri bo'lgan... Avvalgi yo'l kelishmovchilik va kamsitish yo'li edi: ozchilik rohatda yashash va o'z kuchiga ishonish imkoniyatiga ega bo'lgan, lekin ko'pchilik azob uqubatga, qullik va o'limga mahkum edi. Endi biz insonga Osmonga (Yaratganga) xizmat qilgandek xizmat qilib yashash yo'lini tanlaymiz. Biz baxtli hayot kechiramiz, chunki tenglikda va ozodlikda yashaymiz» [27:78 dan iqtibos]

Yangi diniy ta'limot **sohak** («g'arb ta'limoti» yoki katoliklik)ga qarshi ravishda **tonxak** («sharqiy») degan nom oldi. U o'zida buddizm, konfutsiyachilik, daosizm va **xvaranolar** ta'limoti elementlarini mujassamlashtirdi. Konfutsiyachilikning «yashashning besh asosiy qoidasi» tamoyili, buddizmning – «ruhni poklash», daosizmning – tanani ma'naviy va fiziologik poklash, katolikliklarning – monoteizm g'oyasi va yaratganning «Osmon hokimi» degan nomlanishini qabul qildi [24:171dan iqtibos]. Tonxak maktabining tenglik g'oyasi konfutsiyachilikdagi oliy va past tabaqalar haqidagi ta'limotini inkor etadi.

Chxve Che U musiqa haqida o'zining g'oyalarini taklif etadi va uning qo'shiqlari dehqonlar orasida manifestga aylanib ketadi. Bu g'oyalar dehqonlarning 1862 va 1863 yillar qo'zg'olonining mafkuraviy asosiga aylanib ketdi. Hukumat faylasufni jamiyatda bosh-boshdoqlikni shakllanirganlikda ayblaydi. Chxve Che U o'ldiriladi, uning ta'limoti esa hukumatga qarshi din deb e'lon qilinadi.

Lekin uning g'oyalari jamiyat orasida yashashda davom etdi. Chxve Che U o'ldirilganidan so'ng tonxak harakatini Chxve Sixyon boshqardi. 1888 yili u barcha tonxak tashkilotlariga «Sekta a'zolarining axloqiy qoidalari»ni tarqatdi va unda ta'limotning asosiy tamoyillarini bayon etdi:

- ❖ Inson – bu xudo, insonni haqorat qilish xudoni haqorat qilishdir
- ❖ Tenglikka insonga insonparvar munosabat qilish yo'li bilangina erishish mumkin;
- ❖ Tonxak tarafdorlari u nobimi, farzandi qonuniymi yoki noqonuniymi, o'z oila a'zolarini sevishi va hurmat qilishi lozim;
- ❖ Tonxak ta'limoti konfutsiyachilikning hokim osmon (yaratgan) xohishiga ko'ra tayinlangan va u xudoning yerdagi elchisi degan dogmasiga qarshi chiqadi[9:349-350ga qarang]

Chxve Che U ning o'ldirilishi ommaviy chiqishlarga olib keldi. 1894 yili aynan «Sharq ta'limoti» shiori ostida Koreyada eng yirik dehqonlar urushi bo'lib o'tdi.

**Ma'rifatparvarlik va islohot uchun harakatlar** Chjusianlikka alternativ sifatida shakllangan Koreya ma'rifatparvarligi turli oqimlar ta'siri ostida shakllandi: «sirkak» maktabi va Van Yan-Min, nasroniylik va g'arb ta'limotlari, ular orasida Darvin ta'limoti, Russo va Monteskelarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, Spenser pozitivizmi, Smit siyosiy iqtisodi, Gegel va Nisshe falsafalari keng tarqala boshladi. Shu bilan bir qatorda g'arbiy ovrupo (Shekspir, Svift, Bayron, Shiller, Gyugo, Gyote, Servantes, Balzak) va rus yozuvchilar (Krilov, Turgenev, Dostoyevskiy, Tolstoy, Gersen) ning badiiy asarlari keng tarqaldi.

Ovrupo faylasuflari asarlarining kirib kelishi ularni koreys ziyolilari tomonidan to'g'ridan - to'g'ri qabul qilishlarini anglatmaydi. Bu asarlar koreyslar qo'lga birinchi nashrda emas, xitoy va yapon taraqqiy-parvarlarining tarjimalarida (ko'pincha erkin tarjimada) yetib kelgan. Koreyslar bu asarlarning faqatgina ayrim parchalari bilan tanishishi imkoniyatiga ega bo'lganlar. O'z asarlarida g'arb olimlari qarashlarini ifoda etgan holda koreys ma'rifatparvarlari o'z navbatida ularni juda soddalashtirganlar, Koreyaga mos holatga keltirganlar, [5:173dan iqtibos]. Bunda tarjimaning aniqligi emas, koreys jamiyati hayotiga mos muammolar aks ettirilgan syujet yo'li muhim sanalgan. Shu bilan birga, «koreys madaniyati vakillarining ko'pchiligida g'arbdan o'zlashtirilgan g'oyalar olamga konfutsiyachilarcha qarash bilan uyg'unlashib ketgan edi» [9:432 dan iqtibos].

Tarjima qilingan asarlar mavzusini kuzatadigan bo'lsak ularni maqsadga muvofiq ravishda tanlangani sezish mumkin. Bu asarlarning yetakchi mavzusi – davlat hayotida tarixiy ahamiyat kasb etadigan burilish nuqtalarini yasaydigan voqealar; ozodlik va mustaqillik uchun kurashlar, milliy qahramonlar va tarixiy shaxslar biografiyasi tashkil etadi – bularning barchasi koreys halqining ozodlik uchun kurashi bilan hamohangdir. Shu bois asarlarning nomi asliyatdagi asar nomi bilan ko'pincha to'g'ri kelmas edi. Jumladan, Shillerning shveysar halqining avstriyalik mustamlakachilarga qarshi kurashiga bag'ishlangan «Vilgelm Tell» dramasi «Shveysariya davlatining tashkil topishi» nomi bilan nashr ettirilgan. Bu janrdagi kengroq tarqalgan asarlar: «Vetnam



davlati halokati tarixi», «Vashington biografiyasi», «Fransuz imperatori Napoleon haqida hikoya», «Fransiyaning yangi tarixi», «Buyuk Petr haqida povest», «Amerika mustaqilligi tarixi», «Venger qahramoni Koshut haqida qissa», «Franklin biografiyasi», «Polsha harbiylari kurashi tarixi», «Italiya mustaqillik kurashi tarixi», «Italiyaning uch buyuk qahramoni haqida hikoyalar».

«Sinsosol» («yangi povest») nomini olgan bu davr badiiy adabiyotida yangi ideal – «konfusianlik qoidalariga rioya qilish bilan emas, o'z bilimi bilan kuchli bo'lgan komil inson ideali» shakllandi» [5:175 dan iqtibos]. Siyosiy povestlar keng tarqaladi. Yangi adabiyot asosida ovrupo yangi dramatik teatriga yaqin bo'lgan yangi dramaturgiya ham shakllanadi. Qo'shiq san'ati yo'nalishida koreys she'riyatining g'arb musiqasi bilan uyg'unlashuvi yuz beradi.

Ko'pgina ma'rifatparvarlik tashkilotlari yuzaga keladi: «O'z o'zini boshqarish tashkiloti» («Chaganxve», 1906), «G'arb ta'limoti do'stlari tashkiloti» («Souxakve», 1906), «Qiziqarli ilmlarni o'rganuvchi tashkilot» («Xinxakve», 1907) va boshqalar. Chet elliklar tomonidan tarjimonlarni tayyorlovchi ingliz, yapon, rus va fransuz maktablari tashkil etila boshladi.

Koreys ma'rifatparvarlik harakati bir turda emas edi. Ularni yaponlar tarafdorlari, xitoyliklar tarafdorlari va ovrupo tarafdorlari turlariga ajratish mumkin. [o'sha yerda, 168].

Ilk ma'rifatparvarlar orasida Kim Ok Kyunni (1851–1894, «Kexva undon» (islohotchilar harakati) rahbarini, 1884 yil Xitoy hukumati turidagi hukumat o'rnatish va islohotlar o'tkazish maqsadida hukumatga qarshi isyon ishtirokchisini alohida eslab o'tish lozim. Mamlakat inqirozining sababi Kim Ok Kyun yanbanlarning o'zboshimchaligida deb hisoblaydi. Shoxga yozgan xatlaridan birida u bunday deb yozadi: «Hozir hamma narsa inqirozga yuz tutgan. Buning sababi nimada? Faqat yanbanlar o'zboshimchaligidadir. Agar halq tovar ishlab chiqarar ekan amaldorlar ularni shafqatsiz talaydilar, agar halq peshona teri bilan ozgina pul topsa, amaldorlar o'sha zaxoti uni olib qo'yadilar ... Shunday bir siyosat olib borish kerakki, unda bunday nohakliklar ildizi bilan butunlay yemirilib ketsin, aks holda davlat inqirozga yuz tutadi» [9:341 dan iqtibos].

Mamlakatni modernizatsiya qilish uchun Kim Ok Kyun G'arb va Amerika bilan do'stona aloqalar o'rnatish, dvoryanlar imtiyozlarini

soddalashtirish, odamlarni ilmi qilish, raqobatbardosh savdoni yo'lga qo'yish lozim deb hisoblaydi. Kim Ok Kyun va uning zamondoshlari konfutsiyachilik matnlariga emas matematika, tarix va chet tillariga alohida e'tibor qaratiladigan maktablarga asos soldilar; ilmiy-texnik adabiyotlarni tarjima qildilar va tarqatdilar; chet mamlakatlar haqida geografik, tarixiy va iqtisodiy ma'lumotlar kiritilgan gazetalar nashr ettirdilar.

Ma'rifatparvarlik harakati liderlaridan yana biri taniqli faylasuf va publisist Pak In Sikdir (1850–1926).

Faylasuf o'zgartishlarni amalga oshirish zarurligi haqida fikr bildiradi. Uning fikricha bunday munosabat taraqqiyotning umumbashariy qonuniga mos keladi. «Borliqning qonuniga ko'ra («di»), - deb yozadi u, - hamma narsa ma'lum bir vaqtgina mavjud bo'lish xususiyatiga ega, keyin eskiradi, har bir narsa bunyodga keladi va o'ladi (tugaydi), osmon osti dunyosining qonunlari oliyjanob va haqqoniydir hamda uzoq vaqt davomida yashash xususiyatiga ega bo'lgani bilan ular oxir oqibat o'z halokatiga kelmasligining iloji yo'q, ularning tugashi katta yoki kichik zarar keltirishi aniq, lekin ular qayta bunyodga kelmaydilar» [11:847dan iqtibos].

Pak In Sik konfutsiyachilik tarafdori. Biroq, u koreys neokonfutsianchiligi Konfusiy ta'limotining haqiqiy mohiyatidan ancha uzoqlashgan va jiddiy islohotga muhtojdir deb hisoblaydi. Konfutsiyachilikni isloh qilishni talab qilgan holda faylasuf G'arbiy Ovrupoda o'rta asr katolisizmi «jaholatiga» bolta urgan Martin Lyuter va islohotlarni eslatib o'tadi.

Pak In Sik konfutsiyachilik islohotini Van Yan-min ta'limoti bilan chatishishda ko'radi. Jumladan, u shunday deb yozadi: «Ruh – mendagi «Men»ning boshqaruvchisi, barcha narsalarning asosidir. Har safar qachonki istak paydo bo'lsa, ko'ngil istak uchun doim ochiqligiga hech qanday shubha yo'q (agar u yovuz bo'lsa). Agar ko'ngil pok va toza bo'lsa, shubhasiz olamni tan olish yoki inkor qilishda ikkilanishga o'rin yo'q, narsalar va hodisalarning amaliy ahamiyatiga ham shubha tug'ilmaydi» [37:371dan iqtibos].

Koreyadagi islohotlarning eng muhim yo'nalishi ma'rifat, ta'lim tizimining islohoti, ilm-fan taraqqiyoti deb hisoblaydi faylasuf. Jamiyatning harakatlantiruvchi kuchini aynan ilmida ko'radi. U o'zining «Ilm inqirozga yuz tutayotgari bir davrda yashash mumkinmi» degan

ajoyib bir maqolasida shunday deb yozadi: «Agar yer yuzida millatlarning ravnaqi yoki inqirozi, davlatlarning paydo bo'lishi yoki yo'qolishining sabablari haqida gapiradigan bo'lsak, ularga nima hayot bag'ishladi va nima vayron qildi (tugatdi) degan savol tug'iladi. Shubhasiz, bu ilmning ravnaqi yoki inqirozi, uning ta'sirining kuchayishi yoki susayishi natijasidir» [11:848 dan iqtibos].

Ma'rifatparvarlik g'oyalarining boshqa taniqli vakillari Sin Chxe Xo (1879–1936) va Chu Si Gen (1876–1914)lardir. Sin Chxe Xo milliy tarixni o'rganishga katta ahamiyat berdi. Agar tarixni o'chirib tashlasak millat oldida davlatning ham ahamiyati qolmaydi. Millat tarixini o'rganish aholini vataparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ham muhim omildir. Lekin, vatanparvarlik deganda faylasuf o'zi tug'ilib voyaga yetgan vatanga bo'lgan muhabbatni tushunmagan. Vatanparvarlikka tarixiy nuqtai nazardan yondoshish kerak. Vatanparvarlik bu o'z halqining haq-xuquqlarini ta'minlab berayotgan davlatga sadoqatdan iboratdir. Sin Chxe Xo mustaqillik uchun milliy-ozodlik kurashining faol ishtirokchisi bo'lgan. O'z faoliyati uchun u qamoqqa tashlangan va yapon qamoqxonalari olamdan o'tgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida asosiy faoliyati o'z ona tilisini o'rganishga qaratilgan bir qator ma'rifatparvarlar yetishib chiqadilar (Li Bon Un, Yu Gil Chjun, Kim Xi Son, Chu Si Gen). Chu Si Gen, ovrupoda ta'lim olgan filolog koreys yozuvini soddalashtirish va uni targ'ib qilish dasturi bilan chiqdi va bu bilan xitoy tiliga asoslangan konfutsiyachilikka hamda mustamlakachilar tomonidan yaponlashtirish harakatiga qarshi chiqdi. Chu Si Genning sof falsafiy qarashlariga kelsak, moddiy deb tan olinadigan substansiya ta'limoti tarafdori bo'lgan. «Cheksiz bepoyon, na pasti, na tepasi, na markazi, na cheti bo'lmagan chegarasiz borliqda, – deb yozadi Chu Si Gen, - uni butkul to'ldiruvchi va egallovchi yagona mavjud, u paydo ham bo'lmaydi yo'q ham bo'lmaydi, uning oxiri ham boshi ham yo'q. Olamdagi barcha narsalar o'z mavjudligining sababchisi aynan udir. Yagonaga ko'ra narsalar o'zining tabiiy sifatiga (xususiyatiga) ega va u barcha narsaning boshi va asosidir. Yagonani tabiatning, osmonning, azaliyatning tabiiy qonuniyati deyish mumkin – u barcha narsalarni o'z ichiga oladi» [37:380 dan iqtibos].

**Yaponiya tomonidan  
Koreyani anneksiya  
qilish davrida  
intellektual muhit**

1905 yil noyabrda Yaponiya, Rossiya-ning 1904-1905 yillar urushida yengilganidan foydalanib, Koreyaga himoya haqida Shartnomani tan olishga majbur qildi va Koreya ustidan protektorat o'rnatdi, 1910 yil avgustida mamlakatni anneksiya qildi. Koreya Yaponiya imperiyasining bir qismi bo'lgan general-gubernatorlikka aylandi.

Mamlakatni yaponlashtirish boshlandi. Yaponlar koreyslarni o'z ildizini, tarixini, ona tilini unutishga majbur qilish vazifasini qo'ydilar. Koreyslarga har qanday tashkilotlar tuzish man qilindi. Koreys teatr va muzeylari yopildi, milliy bayramlar, raqslar, musiqalar, kiyimlar, koreys tilida adabiyotlar nashr ettirish man etildi. Koreys tilidagi kitoblar yoqib tashlandi. Koreys tilining o'zi esa maktablarda «chet tili» deb e'lon qilindi. Yapon tili rasmiy til deb e'lon qilindi. Maktabdagi o'qishlar ham «ona tili» sifatida shu tilda olib borildi. Koreyscha ism va familiyalar yaponlashtirildi.

Yaponlashtirish bilan bog'liq umumiy siyosat miqyosida yapon sintoizmini targ'ib qilish ham boshlandi. Shu bilan bir qatorda nasroniylik missionerlari, konfutsiyachilik va buddizm ham faollashdi. 20-yillargacha g'arb oqimlari orasida nemis mumtoz falsafasiga zamonaviy falsafa sifatida qaralardi. Yaponlar tazyiqiga uchragan ma'rifatparvarlik harakati inqirozga yuz tutdi. Ma'rifatparvarlarning bir qismi yapon hukumati bilan hamkorlik qila boshladilar, bir qismi esa – Koreyani yaponlashtirishga qarshi kurashni davom ettirdilar.

## 8 Bob. XX asr ikkinchi yarmi va yangi asr boshida Koreya yarim orolida falsafaning rivojlanishi

1945 yili Yaponiya kapitulyatsiya qilinganidan keyin Koreya ikki qismga ajradi, AQSh harbiylari qo'lida qolgan janubiy qismlar, hamda SSSR harbiy kuchlari qo'lida qolgan shimoliy qism. 1948 yili bu hududlardan harbiy kuchlar olib chiqib ketildi va natijada Koreya yarim orolida ikki mamlakat – janubda Koreya Respublikasi va shimolda Koreya halq demokratik Respublikasi. 1950 yilda Shimol va Janub o'rtasida urush boshlandi, urush 27 iyul 1953 yili tinchlik haqida sulx tuzilmaguncha 3 yil davom etdi. O'shandan beri 38-paralleldan o'tadigan demarkasion liniya ikki Koreyani bir-biridan ajratib turadi.

**Shimoliy Koreyada falsafa va mafkura rivojlanishining xususiyatlari** KXDRda stalin-maoistlar tushunchasidagi «sotsializm» va «kommunizm» qurishga qaratilgan totalitar tipdagi siyosiy tizim shakllandi. Tirikligida rasmiy ravishda «Buyuk doxiy janob Kim Ir Sen» va «Qadrdon rahbar Kim Chen Ir» deb nomlanadigan rahbar va uning o'g'liga qaratilgan shaxsga sig'inish kuchaydi.

Shimoliy Koreya jamiyatidagi o'zgarishlarning g'oyaviy va metodologik asosi deb e'lon qilingan «Marksizm-leninizm» stalin-maoistlar tushunchasidagi «marksizm-leninizm»ga yaqin va autentik marksizmdan juda uzoq, ko'pgina yetakchi masalalarda esa butunlay unga teskari. Natijada davlat mafkurasi va insoniyat falsafiy hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarining oliy cho'qqisi deb e'lon qilingan «chuchxe» falsafasi kelib chiqadi. Bu ta'limot asosida kelgusi jamiyatning asosiy mohiyati tavsifi ham aniqlab berildi: «kommunistik jamiyat – bu chuchxe g'oyalari hukm suradigan va amalga oshiriladigan jamiyatdir» [21:16].

«Chuchxe»ning asosiy tezisi shundan iboratki, «inson – hamma narsaning egasi, u hamma narsani hal qiladi» yoki, boshqa so'z bilan aytganda, «sen o'z taqdiringning egasidan, taqdiringni hal qilish uchun kuch o'zingda mavjud» [o'sha yerda]. Chuchxening yetakchi g'oyasi «mustaqillik» yoki «o'z kuchiga ishonishdir». Bu sifat, hamda undan kelib chiqadigan ijodga qobiliyat va onglilik, chuchxe falsafasida inson borlig'ining mohiyatidir. «Ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan, - deb yozadi «Bugun Koreya» jurnali, - inson boshqa

jonzotlardan ungagina xos bo'lgan mustaqillik, ijodga qobiliyat va ongligigi bilan tubdan farq qiladi» [15:32].

Insonga bunday ta'rif falsafadagi eng buyuk to'ntarish deb baholanadi: «Chuchxe falsafasi har bir narsa taraqqiyoti tabiatning ob'ektiv rivojlanish jarayoni deb tushunuvchi faylasuflar qarashidan farq qiladi. Inson ongi rivojining eng oliy cho'qqisi bo'lgan holda u ijtimoiy harakat qonuniyati asosida birinchi bor falsafaning asosiy muammolarini, faqat insongagina xos bo'lgan xususiyatlarni—mustaqillik, ijodiy qobiliyat va onglilikni birinchi bo'lib hal qildi. O'zining yetakchi g'oyalari va mohiyati bilan, narsalar rivojlanishining taxlil uslubi asosida, bir so'z bilan aytganda, har bir aspekt bo'yicha chuchxe g'oyalari falsafiy qarashlarda to'ntarish yasadi» [o'sha yerda].

Chuchxe falsafasi XX asrning buyuk yangiligi deb e'lon qilinadi, shu bois yangi davr ham «mustaqillik davri» deb e'lon qilinadi. Sotsializm ham shunga mos ravishda ta'riflanadi: «Sotsializm ijtimoiy mavjud bo'lgan insonning asosiy talablarini o'zida aks ettirgan hamma mustaqil yashasin shiorli idealni yaratadi» [16:17].

Chuchxeda marksizmning yetakchi g'oyalaridan biri bo'lgan ijtimoiy borliq – moddiy ishlab chiqarishning bir uslubi va odamlarning shunga mos keladigan ijtimoiy hayoti ijtimoiy ongni belgilaydi degan g'oyasi qayta ko'rib chiqildi. Chuchxeda unga butunlay qarama-qarshi bo'lgan tezis ishlab chiqildi: «Ijtimoiy hayotda eng muhim va hal qiluvchi omil bu siyosiy va ma'naviy hayotdir»[15:33]. Sotsializm sharoitida, chuchxe asoschilarining fikricha, «asosni hokimiyat yoki iqtisod emas, balki sotsialistik g'oyani o'zida aks ettirgan inson tashkil etadi» [16:17]. Shu bois uch asosiy yo'nalish: «chuchxey inqilobi» – «iqtisodiy qurilishi», «insonni tarbiyalash» va «jamiyatni o'zgartirish»larni olsak, bunda «insonni qayta tarbiyalash masalasiga ko'proq e'tibor qaratish lozim» [13:3]. Shunday qilib, chuchxega xos bo'lgan g'oyaviylik jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib qolmoqda.

KXDRda 70-yillarda «butun jamiyatda yagona mafkura hukmronligini ta'minlash» shiori va «jamiyatni chuchxe g'oyalari asosida qayta o'zgartirish» shiori e'lon qilindi. Har qanday boshqa g'oya «dohiyga, partiyaga va inqilobga» qarshi jinoyat deb talqin etildi. Yagona mafkura tamoyili asosida markaziy demokratlashtirish

tamoyillari mazmuni keskin o'zgarib ketdi. Demokratiya «revolyusion entuziazm» va «partiya maqsadlarini muvaffaqiyatli bajarishga safarbar etish», sentralizm esa – omma erki bilan bog'lab «yagona, umumiy erkga aylanishi va butun partiya yagona fikr va yagona erk asosida mushohada va harakat qilsin» degan g'oyalarga bo'ysundirildi. [14:7].

**Janubiy Koreyada falsafaning rivojlanishi** Chuchxeni davlat falsafasi darajasiga ko'tarib, undan boshqa barcha falsafiy yo'nalishlar qonundan tashqari deb e'lon qilingan Shimoldan farqli ravishda Janubda buddizm va konfutsiyachilik va g'arb falsafisi ta'sirida vujudga kelgan koreys falsafasining turli an'anaviy yo'nalishlari rivojlanishda davom etdi. Bu holat an'anaviy va g'arb qadriyatlarining birgalikdagi faoliyatining ma'naviy-madaniy holatining yaqqol aksidir.

Koreys falsafasining an'anaviy yo'nalishlariga kelsak, sof an'anaviy izlanishlar bilan bir qatorda an'anaviy muammolar va konseptual apparatlarni g'arb falsafasida rivoj topgan muammo va tushunchalarga bog'lashga intilishni kuzatish mumkin. Bu kontekstda konfutsiyachilik falsafasi va pragmatizm [41], dzen va Vitgenshteyn falsafasi [39], koreys falsafasining an'anaviy tushunchalari va zamonaviy ekologik mushohada [42] va boshqalar tadqiq etiladi.

Janubiy koreyalik faylasuflarning ko'pchiligi AQShda ta'lim olganlar. Bu va boshqa tarixiy sharoitlarga ko'ra Janubiy Koreyada g'arb yo'nalishlaridan anglo-amerikan oqimi, va, ayniqsa, analitik falsafa, ko'proq rivojlandi. Shunday bo'lsa-da, plyuralizm siyosati ta'sirida mamlakatda falsafiy maktablarning deyarli barchasi faoliyat ko'rsatadi deyish mumkin. 90-yillardan boshlab Koreyada MDH davlatlarida tahsil olgan, va ayniqsa Moskva hamda Sankt-peterburg oliy dargoxlarida taxsil olgan faylasuflar paydo bo'la boshladi.

Janubiy koreys falsafasining yetakchi mavzularidan biri an'anaviy milliy qadriyatlarning, madaniyatning va obrazli tafakkurning zamonaviy Koreyaga transformatsiyasi masalasidir. Bu muammo G'arb-Sharq, «ota va bolalar», an'anaviylik va industriallik, kollektivizm va individualizm va boshqa kontekstlarda tadqiq etiladi. [40:43]

Faylasuflar, tarixchilar, sotsiologlar va politologlar murojaat qiladigan keyingi muhim masala bu Koreyani birlashtirish muammosidir.

Janubiy Koreyaning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar dunyosini qiziqtiruvchi masalalar bu jins, oila, ta'lim va tanazzuldan keyingi davr falsafasi kabi masalalardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vanin Yu.V. *Feodalnaya Koreya v XIII-XIV vekax.* –M., 1962.
2. Garin N.G. *Iz dnevnikov kruglosvetnogo puteshestviya (po Koree, Manchjuri i Lyaodunskomu poluostrovu).* –M., 1949.
3. Gegel. *Ensiklopediya filosofskix nauk. T.2.* –M., 1975.
4. «*Dalniy Vostok*», 1894, 10 iyunya.
5. Ivanova V.I. *Prosvetitelstvo v Koree i tvorchestvo Li Indjika.* – V sb.: *Teoreticheskie problemi izucheniya literatur Dalnego Vostoka.* –M., 1970.
6. Ionova Yu.V. *Perejtki totemizma v religioznix obryadax koreysev.* – V sb.: *Religiya i mifologiya narodov Vostochnoy i Yujnoy Azii.* –M., 1970.
7. Ionova Yu.V. *Predstavleniya koreysev o dushe.* – V sb.: *Mifologiya i verovaniya narodov Vostochnoy i Yujnoy Azii.* –M., 1973.
8. *Istoriya Korei. T. 1.* –M., 1960. Per. s kor.
9. *Istoriya Korei (s drevneyshix vremen do nashix dney). T.1.* –M., 1974.
10. *Istoriya filosofii. T.1.* –M., 1957.
11. *Istoriya filosofii. T.5.* –M., 1961.
12. Kim Busik. *Samguk Sagi. Letopisi Silla.* –M., 1959.
13. «*Koreya segodnya*». – Pxenyan. 1990, № 2.
14. «*Koreya segodnya*». – Pxenyan. 1990, № 11.
15. «*Koreya segodnya*». – Pxenyan. 1991, № 5.
16. «*Koreya segodnya*». – Pxenyan. 1992, № 6.
17. *Koreya. Sifri i fakti.* – Seul, 1993.
18. Li V.N. *O prosvetitel'skix tendensiyax koreyskoy literaturi na rubeje XIX i XX vv.* – V sb.: *Teoreticheskie problemi izucheniya literatur Dalnego Vostoka.* –M., 1970.
19. Nikitina M.I. *Janr «sichjo» v koreyskoy poezii XV v.* – V sb.: *Voprosi filologii i istorii stran sovet'skogo i zarubejnogo Vostoka.* –M., 1961.
20. *Opisanie Korei.* –M., 1960.
21. *Poznakomtes s Koreey.* – Pxenyan, 1989.
22. Trotsevich A.F. *Ideal cheloveka v koreyskoy srednevekovoy povesti.* – *Kratkie soobsheniya Instituta narodov Azii. Vip. 63.* 1963.
23. Trotsevich A.F. *Idei «srxak» v koreyskoy literature XVIII v.* – V sb.: *Voprosi filologii i istorii stran sovet'skogo i zarubejnogo Vostoka.* –M., 1961.
24. Tyagay G.D. *Obshchestvennaya misl Korei v epoxu pozdnego feodalizma.* –M., 1971.
25. Tyagay G.D. *Formirovanie ideologii nasionalno-osvoboditelnogo dvizheniya v Koree.* –M., 1983.



26. Ushkov A.M. *Nekotore voprosi istorii filosofskoy misli v Koree epoxi feodalizma.* – «Voprosi filosofii», 1962, № 5.
27. Ushkov A.M. *Utopicheskaya misl v stranax Vostoka: tradisii i sovremennost.* –M., 1982.
28. *Filosofskaya ensiklopediya. T.1.* –M., 1960, statya «An Xyan».
29. *Filosofskaya ensiklopediya. T.2.* –M., 1962, statya «Kvon Gin».
30. *Filosofskaya ensiklopediya. T.2.* –M., 1962, statya «Kim Si Sip».
31. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Koreyskaya filosofskaya i obustvennaya misl».
32. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Li I».
33. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Li Ik».
34. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Li Sek».
35. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Li Xvan».
36. *Filosofskaya ensiklopediya. T.3.* –M., 1964, statya «Lyu Xyon Von».
37. Chon Chin Sok, Chon Son Chhol, Kim Chxan Von. *Istoriya koreyskoy filosofii.* –M., 1966. Per. s kor.
38. Bae-Jong-ho. *The Philosophical Ideas of Yulgok.* – “Korea Journal”. Vol. 28, N 11. 1988.
39. Jungsik Um. *Zen and Wittgenstein.* – *Philosophy and Culture.* –Seoul: Korean Philosophical Association. 1999. Vol. 1. N 1.
40. Jungsik Um. *The Transformation of the Traditional Value in the Contemporary History of Korea. '84 Worksshop.* Association of Christian Universities and Coleges in Asia. Taipei. Fu Jen Catholic University. May 31, 1984.
41. Kwang-Sae Lee. *Confucianism and Pragmatism.* – *Philosophy and Culture.* –Seoul: Korean Philosophical Association. 1999. Vol. 1. N 1.
42. Kyung-hee Nam. *Gyul: Ecological Reason.* – *Philosophy, Culture and Education: Asian Societies in Transition.* –Seoul: Korean National Commission for Unesco. 1999. Vol. 2.
43. Pak Tong-hwan. *Korean Thought: Its Development Pattern Examined Especially in the Context of Social Circumstances.* – “Korea Journal”. 1981. Vol. 21. N 10.

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1 BOB. Qadimiy Koreyadagi diniy mifologik tasavvurlar va dastlabki falsafiy qarashlar</b> .....	4
Qadimiy Koreyada mifologiya va shamanizm .....	4
Qadimiy Chosonda dastlabki falsafiy qarashlarning shakllanishi ....	7
<b>2 BOB. Uch davlat hukmronligi davrida konfutsiyachilik, buddizm va daosizm falsafasi</b> .....	8
Konfutsiyachilik .....	8
Buddaviylik .....	9
Daosizm .....	11
<b>3 BOB. Qo'shma Silla va Koryo davlatlari hukmronligi davridagi falsafa taraqqiyoti</b> .....	12
<b>4 BOB. Ilk Choson davrida falsafiy qarashlarning shakllanishi</b> .....	15
Sallimxakpxa maktabi .....	16
Kvanxakpxa maktabi .....	16
<b>5 BOB. XV-XVI asrlarda Chosonda falsafiy qarashlarning rivojlanishi</b> .....	19
Legistlar maktabi .....	19
"Yugirion" maktabi .....	20
"Churipxa" maktabi .....	25
"Churipxa" maktabi va Li I falsafasi .....	28
<b>6 B o b. XVII – XIX asr birinchi yarmida Chosonda koreys falsafasiing rivojlanishi</b> .....	30
XVII–XIII asrlarda "Chugiron" maktabi .....	31
"Xan ta'limoti" maktabi .....	32
Van Yan-min tarafdorlari maktabi.....	33
Im Son Chu falsafasi.....	34
XVII asrda "Sirxak" maktabining shakllanishi .....	35
XIII asrda "Sirxak" maktabi qarashlarning shakllanishi .....	37
"Pukxak" yo'nalishi.....	39
Chon Yak Yenning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	44

<b>7 BOB. XIX asr va XX asr birinchi yarmida Chosonda</b>	
<b>Koreys falsafasi</b> .....	48
Feodalizm inqirozi va kapitalistik munosabatlarning shakllinishi .....	48
Chjusianlik tanazzuli .....	51
Chxve Xan Gi falsafasi .....	53
“Tonxak” maktabi .....	54
Ma’riftparvarlik va islohot uchun harakatlar .....	56
Yaponiya tomonidan Koreyani anneksiya qilish davrida intellektual muhit .....	60
<b>8 BOB. XX asr ikkinchi yarmi va yangi sr boshida Koreya yarim orolida falsafaning rivojlanishi</b> .....	61
Shimoliy Koreyada falsafa va mafkura rivojlanishining xususiyatlari .....	61
Janubiy Koreyada falsafaning rivojlanishi .....	63
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	64

Ahmedova M.A., Xan V.S. *Koreys falsafasi (qisqacha tarixiy bayon)*. –T.: ToshDShI nashriyoti. 2009. 68 b.

Tex.muhammadir: *M.M.Zarifov*

Korrektor: *D.Arifjanova*

Kom.verstka: *M.M.Zarifov*

O'quv qo'llanma ToshDShI O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (bayonnoma №1 / 16.10.2008).

Nashrga ruhsat berilgan 13.01.2009 y.  
Format 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub> Shartli b.t. 4,25. Tiraj 200. Zakaz №. 3 -  
Toshkent davlat sharqshunoslik institutining kichik nashriyotida nashr etilgan. Toshkent, Shaxrisabz ko'chasi, 25

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009